

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI**

**“Himoyaga ruxsat etilsin”
Tarix fakulteti dekani
_____t.f.n. dots. V.Ishquvvatov
2014 yil « _____ » _____**

5141500 – Tarix fakulteti “Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi”
bakalavriat ta’lim yo‘nalishi 4-kurs talabasi
Jabborova Zebo Nurqobilovnaning

**O‘QUVCHI- YOSHLARNI FAVQULODDA VAZIYATLARGA QARSHI
TAYYORLASHNING MA’NAVIY JIHATLARI
mavzusidagi**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**Ilmiy rahbar: “Milliy g‘oya va
ma’naviyat asoslari” kafedrasi
katta o‘qituvchisi _____A. Norboyev**

**Ilmiy maslahatchi : “Milliy g‘oya va
ma’naviyat asoslari” kafedrasi
professori _____t.f.n. M.Lafasov**

**“Himoyaga tavsiya etilsin”
“Milliy g‘oya va ma’naviyat asoslari”
kafedrasi mudiri
_____f.f.n.M.A.Sobirova
2014 yil _____**

Toshkent – 2014

Mavzu:

**O'quvchi- yoshlarni favqulodda vaziyatlarga qarshi
tayyorlashning ma'naviy jihatlar**

REJA:

Kirish

I. BOB. Favqulodda vaziyatlar va ularning ijtimoiy hayotda aks etishi

1.1.Favqulodda vaziyatlar tushunchalari hamda ularning tasniflanishi

1.2.Favqulodda vaziyatlarning ma'naviy hayotda aks etishi

**II. BOB. Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularga qarshi
kurashishning ma'naviy-ma'rifiy omillari**

2.1.Favqulodda vaziyatlarning oldini olishning ma'naviy-ma'rifiy omillari

2.2.O'zbekistonda Favqulodda vaziyatlarga qarshi qaratilgan chora- tadbirlar
tizimi

**III.BOB. O'quvchi- yoshlarni favqulodda vaziyatlar davrida ma'naviy
yuksaklik ruhida tarbiyalashning pedagogik omillari**

3.1. O'quvchi- yoshlarga favqulodda vaziyatlar davrida ma'naviy yuksaklik
ruhida tarbiyalashning pedagogik omillarini interfaol metodlar asosida
tushuntirish

3.2. Mavzuga oid dars ishlanmasi

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. Bugun dunyo jamoatchiligini va davlatlarni tashvishga va tahlikaga solayotgan jarayonlarlardan biri o'tgan asrning ikkinchi yarmi hamda XXI asrning boshlarida ko'payib borayotgan turli tusdagi favqulodda vaziyatlardir.

Insoniyat bashariyat tarixining eng yuksak cho'qqisiga ko'tarilgan bir pallada unga bog'liq bo'lmagan turli ofat va falokatlarning ortib borayotgani kishini o'ylatadi. Prezidentimiz Islom Karimov 1998 yil 7-8 iyun kunlari Shohimardonda yuz bergan seldan talofat ko'rgan va jabrlangan kishilar bilan uchrashar ekan "Biz tabiiy ofatlar tarixini o'rganishimiz kerak", degan edilar.

Holbuki, o'tgan asrda o'ziga xos siyosiy tuzumlar o'rtasidagi raqobat insonni jar yoqasiga, boshqacharoq aytganda texnogen, tabiiy va ekologik ofatlar iskanjasiga olib kelgan. Shu o'rinda aytish mumkinki, tabiat inson uchun degan fikr va qarashlar paydo bo'ldi. Zero, insonning o'zi ham tabiatning bir bo'lagi ekanligini unutdi.

Bu borada e'tiborni qaratmaslik yanada og'ir oqibatlarga olib kelishi mumkinligi ayon bo'lib qoldi. Shu sababli 1989 yil 22 dekabr kuni BMT ning Bosh Assambleyasi tomonidan o'tkazilgan 44 sessiyasida 1990 yildan to 2000 yilgacha bo'lgan davrni "Tabiiy ofatlarni oldini olish Xalqaro o'n yilligi" deb e'lon qilishdi. 2001 yilga kelib Bosh Assambleyaning 156 rezolyutsiyasi bilan bu o'n yillik yana uzaytirildi. Shu davrdan boshlab, har yilning oktyabr oyining birinchi chorshanbasi "Tabiiy ofatlarning oldini olish xalqaro kuni" deb e'lon qilindi. Hozirgi kungacha bu masala esa kun tartibidan olib tashlangani yo'q.¹

BMT ning 44 sessiyasida tabiiy ofatlar ortib borayotigani ko'rsatilgan holda, unga qarshi kurashda har bir davlatning o'z tuzilmasi bo'lishi lozim, deb ko'rsatilgan edi. O'tgan qisqa davrda 128 ta mamlakatda favqulodda vaziyatlarga qarshi kuraShu vchi tashkilotlar tuzildi.

¹ I. Xoliqov, A. Norboev, M. Ishxo'jaeva "O'zbekistonda favqulodda vaziyatlarda davlat tizimi va uning barqarorlikni ta'minlashdagi o'rni". T. 2013 y

Ayrim ma'lumotlarga qaraganda har yili dunyo bo'ylab ishlab chiqarilayotgan yalpi mahsulot 2-5% gacha tashkil etgan bo'lsa, Shu ndan tabiiy ofatlar keltirayotgan iqtisodiy zararlar miqdori 5-10% gacha tashkil etmoqda. Bu mahsulotlarning nobud bo'layotgan katta qismi, ya'ni 90% bunday tizim shakllanmagan hamda bu borada ish olib bormayotgan davlatlar hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Men yozmoqchi bo'lgan bitiruv malakaviy ishi «O'quvchi- yoshlarni favqulodda vaziyatlarga qarshi tarbiyalashning ma'naviy jihatlarini» mavzusida bo'lib, bu mavzuning dolzarbligi bugungi kunimizda alohida ahamiyat kasb etadi. Istiqloлга erishganimizning dastlabki kunlaridanoq mamlakatimizda tinchlik va osoyishtalikni ta'minlash masalasi ustuvor vazifalar qatoridan o'rin oldi. Xususan, aholi va tabiiy hududlarni tabiiy, texnogen va ekologik xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish, xalqimizning mo'tadil hayot faoliyatini ta'minlab turish borasida bir qator ishlar amalga oshirildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996 yil 4 martdagi farmoniga binoan aholi va xalq xo'jaligi inshootlarini tabiiy ofatlardan muhofaza qilishning samarali tizimini tashkil etish, respublikada tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlarning oldini olish va uning oqibatlarini bartaraf etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining Fuqaro mudofaasi va Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi negizida O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi tashkil etildi.¹

Shu boisdan mavzuning dolzarbligini qo'ydagi omillar bilan bog'lash mumkin:

- favqulodda vaziyatlarning tasnifi, turlari hamda ularning yuz berishidagi omillarni tarixiy-ilmiy tomondan yoritib berish;
- o'zbek xalqi hayotida tabiat va unda yuz bergan hodisalarning tutgan o'rni, hamda oqibatlarini ular bartaraf etish borasidagi ishlarning tarixiy manbalarda aks ettirilganligini ilmiy tomondan tahlil etish;

¹ O'z R FFV, Favqulodda vaziyatlarda boshqaruv markazi. Ma'lumot blyutenlari.

- dunyo xalqlari tarixida dastlabki diniy va ilmiy qarashlarning shakllanishida tabiat hodisalarining o'rnini va bugungi kundagi ilmiy qarashlar bilan qiyoslash;
- yoshlarni tabiat hodisalari bilan bog'liq bilimlarini oshirish va ularning insoniyat hayotiga ta'sirini ko'rsatib berish;
- yoshlarning ma'naviy yuksaklikka erishishida, insoniylik xususiyatlarini his etib turishida ajdodlarimizdan qolgan tabiatni e'zozlashga qaratilgan qadriyatlarining o'rnini ko'rsatib berish;
- avlodlar oldida tabiat ne'matlaridan me'yorida foydalanish uchun muayyan ma'suliyatni shakllantirish;
- favqulodda vaziyatlarning kelib chiqishiga diniy tomondan yondashish;
- O'zbekiston Respublikasida favqulodda vaziyatlarga qarshi qaratilgan chora-tadbirlari va ularning tizimini ko'rsatish;

Turli tushdagi favqulodda vaziyatlar yuz berishini oldini olishda aholining ma'naviy-ma'rifiy jihatdan yuksakligi asosiy o'rin egallayotganini jahonda yuz berayotgan favqulodda vaziyatlardan aziyat chekayotgan va uni oqibatlarini bartaraf etish uchun millatning qanday iroda kuchiga ega ekanligi namoyon bo'layotgan jarayonlardan ham ko'rish mumkin.

Masalan, 2011 yil 11 martda Yaponiyada yuz bergan sunami Xukusima shahrini vayronaga aylantirdi. Biroq aholining unga tayyorgarligi talofatlar miqdorini ozaytirdi, millatning irodasi va ma'naviy hamjihatligi uning oqibatlarini zudlik bilan bartaraf etishga olib keldi.

Shu sababli ham ushbu bitiruv malakaviy ishi mavzusi o'ziga xos dolzarb ahamiyatga ega.

Mavzuning ilmiy o'rganilganlik darajasi. «O'quvchi- yoshlarni favqulodda vaziyatlarga qarshi tarbiyalashning ma'naviy jihatlari» mavzusi alohida ilmiy ish sifatida o'rganilmagan mavzu hisoblanadi.

Mavzuga oid Qur'oni Karimning sura va oyatlarida, hadislarda, "Avesto" kitobida, yurtboshimiz I. Karimovning "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari" asarida, O'zbekiston Respublikasining qaror va qonunlarida, davlat dasturlarida,

“Aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishning huquqiy asoslari” (Me’yoriy hujjatlar to’plami)da, Z.F.Ilyosova, “Hayot xavfsizligi asoslari”, H. Homidov “Avesto fayzlari”, I. Holiqov, A. Norboev “Tabiat hodisalarining insoniyat hayotida tutgan o’rni”, I. Holiqov, A. Norboev, M. Ishxo’jaevalarning “Favqulodda vaziyatlarda davlat tizimi va uning mintaqa barqarorligidagi o’rni”, A. Norboev va boshqalarning “Suv, sel, toshqin” kabi uslubiy qullanmalari va ko’plab ilmiy maqolalarda, “Ekologiya va hayot”, “Muhofaza+” jurnallarida, bir qator gazeta nashrlarida bu haqda to’xtalib o’tilgan.

Biroq, bu mavzuni akademik letsiy va kasb-hunar kollejlarda o’rganish alohida yondashishni talab etadi. Ushbu mavzu yoshlarning turli ko’rinishdagi tabiat hodisalariga bo’lgan munosabatini yaxshi tomonga ko’paytiradi va tabiat oldidagi inson burchi va ma’suliyatini yanada oshiradi.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi. «O’quvchi- yoshlarni favqulodda vaziyatlarga qarshi tarbiyalashning ma’naviy jihatlari” mavzusini o’rganish usullari hamda texnologiyalarini tadqiq etishdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishining asosiy vazifalari. «O’quvchi- yoshlarni favqulodda vaziyatlarga qarshi tarbiyalashning ma’naviy jihatlari” mavzusi mohiyatini ochib berish orqali uning jamiyat va yurtimiz ma’naviy hayotidagi ahamiyatini ochib berish;

-Favqulodda vaziyatlar tuShu nchasi, uning tasnif va ko’rinishlarini va ularning ijtimoiy hayotimizda aks etishini keng yoritib berish;

-Favqulodda vaziyatlarning oldin olish va ularga qarshi kurashishning ma’naviy-ma’rifiy omillari, favqulodda vaziyatlarining inson hayotiga ta’siri, insonlarning unga nisbatan munosabatda bo’lishnmng o’ziga xos usullarini tadbiq etish;

-Mamlakatimizda favqulodda vaziyatlarga qarshi kurashishning chora-tadbirlari tizimi bilan tanishish;

-Ta’lim mussasalarida mavzuni o’rganishda joriy etilayotgan darsliklardan tashqari qo’llash mumkin bo’lgan zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo’llash usullari va uslublarini o’rganib chiqish;

Bitiruv malakaviy ishining ob'ekti. Ushbu mavzuning dars va darsdan tashqarida o'rganish texnologiyasini yoritish ishning ob'ektini tashkil qiladi.

Bitiruv malakaviy ishining predmeti. «O'quvchi- yoshlarni favqulodda vaziyatlarga qarshi tarbiyalashning ma'naviy jihatlari» mavzusini o'rganish ushbu mavzuning predmetini tashkil etadi.

Bitiruv malakaviy ishining nazariy –metodik asoslari. Ushbu ishda Prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimovning mavzuga oid asarlari, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari va mutaxassis olimlarning tadqiqot yo'nalishiga doir ilmiy izlanishlaridan unumli foydalanildi.

Bitiruv malakaviy ishining metodlari. Taqqoslash, qiyosiy tahlil, tarixiy materiallarni ilmiy jihatdan o'rganish, induksiya.

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy ahamiyati. Ushbu mavzuni o'rganishda yangi texnologiyalar tadqiq etish orqali yoshlar tarbiyasida favqulodda vaziyatlarga munosabat, tabiat va uni e'zozlash, insoniylik hissi va ma'suliyatini shakllantirish, axloqan pok va ma'nan barkamol bo'lishida katta xizmat qiladi. Bitiruv malakaviy ishida tavsiya etilgan usullar va uslublardan akademik letsiy va kasb-hunar kollejlari o'qitish jarayonida foydalanish mumkin.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Bitiruv malakaviy ishida tanlangan mavzu bo'yicha bugungi kunda nafaqat mamlakatimizda, balki mintaq va dunyo davlatlarida tabiat va inson uyg'unligi borasida, favqulodda vaziyatli hollarda olib borilayotgan chora-tadbirlar borasidagi ishlar o'rganilmoqda. Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki, favqulodda vaziyatlarda insonlarning unga bo'lgan ma'naviy munosabatini o'rganish, avvalo, insonni o'zini tabiatning bir bo'lagi sifatida anglashi, favqulodda vaziyatlar yuz bergan vaqtda insoniylikka xos bo'lmagan holda jabr chekkan aholining og'ir vaziyatidan foydalanib, ularning mol-mulkini o'zlashtirib olish(kafando'zlik) harakatining xalqaro miqyosida ham jinoyat sifatida qaralishi haqidagi fikrlarni ilgari surishdan iborat.

Ushbu mavzudan akademik letsiy va kasb-hunar kollejlari biologiya, ekologiya, tarix va boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlarga mos mavzularni o'qitishda qoydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi.

Kirish, 3 ta bob, oltita paragraf, xulosa, glossariy, foydalanilgan adabiyolar ro'yxati va mundarijadan iborat.

I BOB. Favqulodda vaziyatlar va ularning ijtimoiy hayotda aks etishi

1.1.Favqulodda vaziyatlar tuShu nchalari hamda ularning tasniflanishi

Favqulodda vaziyat – bu muayyan hududda o'zidan so'ng odamlarning qurbon bo'lishi, odamlar sog'ligi va atrof –muhitga ziyon yetkazishi, kishilarning hayot faoliyatiga kattagina moddiy zarar hamda uning buzi lishiga olib kelishi mumkin bo'lgan yoki olib kelgan avariya, halokat, stixiyali ofat, epidemiyalar, epizootiyalar natijasida yuzaga kelgan vaziyatdir¹.

Ya'ni yuzaga kelgan xavfli vaziyatda quyidagi besh alomatdan hech bo'lmasa birontasi yuzaga kelsa, ushbu vaziyat favqulodda vaziyatga aylanishi mumkin. Ular:

- odamlar qurbon bo'lishi;
- odamlarning sog'ligiga zarar yetishi;
- insonning hayot faoliyati izdan chiqishiga olib kelishi;
- jiddiy moddiy talofatlar keltirib chiqarishi;
- atrof-muhitga zarar yetishi.

Favqulodda vaziyatlar va ular bilan bog'liq ko'pgina yangi terminlarga O'zbekiston Respublikasining Shu sohadagi qonunlari va Vazirlar Mahkamasining qarorlarida tuShu nchalar berib o'tilgan.

Jumladan, *Favqulodda vaziyat (FV)* — odamlar qurbon bo'lishi, ularning sog'lig'i yoki atrof-muhitga zarar etishi, jiddiy moddiy talafotlar keltirib chiqarishi hamda inson hayot faoliyatining izdan chiqishiga olib kelishi mumkin bo'lgan yoki olib kelgan avariya, halokat, xavfli tabiiy hodisa yoki boshqa tabiiy ofat natijasida muayyan hududda yuzaga kelgan vaziyat.²

Favqulodda vaziyatlarning sabablari xilma-xil bo'lsada, ularni uch asosiy turga ajratsa bo'ladi:

- tabiat shakllantirgan sabablar,
- inson shakllantirgan sabablar,

¹ I. Xoliqov, A. Norboev, M. Ishxo'jaeva "O'zbekistonda favqulodda vaziyatlarda davlat tizimi va uning barqarorlikni ta'minlashdagi o'rni". T. 2013 y

² Aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishning huquqiy asoslari.(me'yoriy hujjatlar to'plami). T. 2013 y.

- inson va tabiat birligidan kelib chiqqan sabablar.

Aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish — favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish choralari, usullari, vositalari tizimi, sayi-harakatlari majmui.

Favqulodda vaziyatlarning oldini olish — oldindan o'tkazilib, favqulodda vaziyatlar ro'y berishi xavfini imkon qadar kamaytirishga, bunday vaziyatlar ro'y bergan taqdirda esa odamlar sog'lig'ini saqlash, atrof-muhitga etkaziladigan zarar va moddiy talafotlar miqdorini kamaytirishga qaratilgan tadbirlar majmui.¹

Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish — favqulodda vaziyatlar ro'y berganda, odamlar hayoti va sog'lig'ini saqlash, atrof-muhitga etkaziladigan zarar va moddiy talafotlar miqdorini kamaytirish, Shu ningdek, favqulodda vaziyatlar ro'y bergan zonalarni halqaga olib, xavfli omillar ta'sirini tugatishga qaratilgan avariya-qutqaruv ishlari va kechiktirib bo'lmaydigan boshqa ishlar kompleksidir.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Texnogen, tabiiy va ekologik tushdagi favqulodda vaziyatlarning tasnifi to'g'risida" gi qarorida O'zbekiston Respublikasi hududida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan barcha favqulodda vaziyatlar kelib chiqish xarakteriga ko'ra, uch tucga:

Tabiiy, texnogen va ekologik favqulodda vaziyatlarga bo'linadi.

Texnogen xarakterdagi favqulodda vaziyatlar: Texnogen xarakterdagi favqulodda vaziyatlarga: transport avariylari va halokatlari texnogen xarakterdagi favqulodda vaziyatga kirib, u havo, temiryo'l, avtomobil, metropoliten transportlarida yuz bergan halokatlar hamda avariylarni o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, gaz-neft quvurlarining yorilib ketishi, sanoat korxonalaridagi portlash va hokazolar ham Shu nday favqulodda vaziyatlarga kiradi.

Bu tushdagi favqulodda vaziyatlarni quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

- 1.Transport avariylari va halokatlari.
- 2.Kimyoviy xavfli ob'ektlardagi avariylar.
- 3.Yong'in-portlash xavfi bo'lgan ob'ektlardagi avariylar.
4. Energetika va kommunal tizimlardagi avariylar.

¹ O'sha manba

5. Ijtimoiy yo'nalishdagi binolar konstruktsiyalarini to'satdan buzilishi oqibatida kelib chiqadigan avariylar.

6. Hidrotexnik avariylar.

7. Radioaktiv va boshqa ekologik zararli moddalarni saqlash yoki foydalanish bilan bog'liq bo'lgan avariylar.

1996-2002 yillar davomida yuz bergan texnogen tushdagi favqulodda vaziyatlar sabablari mutaxassislar tomonidan o'rganib chiqildi va texnogen tushdagi favqulodda vaziyatlarning yuz berish sabablarini shartli ravishda ikkiga ajratish mumkin bo'ldi.

Birinchii, inson istak xohishiga bo'sunmagan omillar kiradi. Bunday omillar zilzilalar, suv toshqinlari, sel, qattiq shamol, yer surilishlari, cho'kishlarining texnogen tushdagi favqulodda vaziyatlarning vujudga keltirishi;

Ikkinchi, omillar turiga kiradigan asosiy sabablar quyidagilardan iborat: energetika, yonilg'i, ximiya sohalardagi asosiy ishlab chiqarish fondlarini yuqori suratda eskirishi;

- modernizatsiyalash, remont va Shu ningdek profilaktik ishlarini yetarli miqdorda amalga oshirilmasligi;

- ishlab chiqaruvchilarning past malakada ekanligi;

- texnika va yong'in, Shu ningdek yo'l harakati xavfsizligidagi qo'pol xatolarga yo'l qo'yilganligi;

- hayot faoliyati xavfsizligi asoslarini bilmaslik;

- xalq xo'jaligi ob'ekti rahbarlari va xodimlarining favqulodda vaziyatlar yuz bergandagi harakatining bilim darajasidagi zaiflik.

Demak, texnogen tushdagi favqulodda vaziyatlar yuz berishi ob'ektiv va sub'ektiv sabablarga bog'liq.

Texnogen tushdagi favqulodda vaziyatlarning o'ziga xos xususiyati bunday favqulodda vaziyatlarning katta qismi lokal xarakterga ega ekanligida. Shu bilan birga mazkur tushdagi favqulodda vaziyatlar ekologik xarakterdagi ayrim favqulodda vaziyatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Shuning uchun ham ekologik favqulodda vaziyatlarga antropogen ta'sirning o'rni katta.

Tabiiy xarakterdagi favqulodda vaziyatlar: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 27 oktyabridagi 455 sonli "Texnogen, tabiiy va ekologik tushdagi favqulodda vaziyatlarning tasnifi to'g'risida" gi qarorda tabiiy tushdagi favqulodda vaziyatlar quyidagi guruhlariga bo'lingan: geologik, gidrometeorologik, favqulodda epidemiologik, epizootik va epifitotik vaziyatlarga bo'lingan.

1. Geologik xavfli vaziyatlar. Bularga zilzilalar, yer ko'chishlari, tog' o'pirilishlari va boshqa xavfli hodisalar kiradi. Bunday favqulodda vaziyatlar orasida eng xavfli hodisa - yer silkinishi hisoblanadi.

2. Gidrometeorologik tushdagi favqulodda vaziyatlar. Bu tushdagi favqulodda vaziyatlarga suv toshqinlari, suv to'planishi, sel kelishi, qor ko'chkilari, kuchli shamollar (dovullar), to'fon, quyun, sunami, jala va boshqa xavfli hodisalar kiradi.

3. Tabiiy tushdagi favqulodda vaziyatlarga epidemiologik, epizootik va epifitotik vaziyatlar ham kiradi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 455-sonli qarorida bunday favqulodda vaziyatlar, odamlar orasida tarqalishi mumkin bo'lgan xavfli kasalliklar oqibatiga qarab epidemiologik, epizootik va epifitotik kabi turlarga bo'lingan.

Tabiiy tushdagi favqulodda vaziyatlarning o'ziga xos xususiyatlarini bir nechta guruhlariga ajratish mumkin. Bunday favqulodda vaziyatlarning birinchi xususiyati uning to'satdan yuz berish va uni bo'ysundirib bo'lmasligidir. Tabiiy tushdagi favqulodda vaziyatlarning ikkinchi xususiyati uning yuz berishini oldindan ko'rsatib berish mumkinligidir. Biroq tabiiy tushdagi favqulodda vaziyatlarning ayrimlarini oldindan to'la bashoratlash, uni talofatsiz o'tkazib yuborish mumkin. Bu tushdagi favqulodda vaziyatlarning yana bir xususiyati ularning biri ikkinchisini keltirib chiqarishi mumkinligidir. Masalan, bunga bugungi kunda Markaziy Osiyo mintaqasida juda katta xavf solib turgan Sarez ko'lini vujudga kelishini ko'rish mumkin. Avvalo, 1911 yilda kuchli yer silkinishining yuz berishi va juda katta Yer massasining surilishi, uni esa Muzko'l daryosini

to'sib qo'yganligi oqibatida yig'ilgan suv mintaqadagi 5 mln dan ortiq aholi hayotiga xavf solib turganligini ko'rish mumkin.¹

Ekologik xarakterdagi favqulodda vaziyatlar: Mamlakatimiz Prezidenti I.Karimov "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari" asarida "Milliy xavfsizlikka qarshi yashirin tahdidlarni ko'rib chiqar ekanmiz, ekologik xavfsizlik va atrof muhitni muhofaza qilish muammosi alohida e'tiborga molikdir," deb aytgan edi.

Ekologik tusdagi favqulodda vaziyatlar bugungi kunda eng ko'p tarqalgan va asta-sekinlik bilan ta'sir etib boruvchi, juda katta iqtisodiy zararlar hamda noxush vaziyatlarga olib kelishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlardir.

Shu sababli, ekologik tusdagi favqulodda vaziyatlarni quyidagi guruhlariga ajratish mumkin. Bular:

1. Er osti va usti o'zgarishi bilan bog'liq bo'lgan hodisalar.
2. Atmosfera o'zgarishi bilan bog'liq bo'lgan hodisalar.
3. Gidrosfera vaziyatining o'zgarishi bilan bog'liq bo'lgan hodisalar.²

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 27 oktyabrdagi 455-sonli "Texnogen, tabiiy va ekologik tusdagi favqulodda vaziyatlarning tasnifi to'g'risida" gi qarorida ekologik tusdagi favqulodda vaziyatlarga quyidagicha tasnif berilgan:

1. Quruqlik (tuproq, yer osti) ning vaziyati o'zgarishlari bilan bog'liq vaziyatlar.
2. Atmosfera (havo muhiti) tarkibi xossalari o'zgarishi bilan bog'liq bo'lgan vaziyatlar
3. Gidrosfera o'zgarishi bilan bog'liq bo'lgan vaziyatlar.

Mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimov "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari" asarida ekologik tahdidlar haqida to'xtalar ekan bu xususda yerning cheklanganligi va uning sifat tarkibining pastligini to'xtovsiz oshib borishi, yer osti va usti suvlarining

¹ O'z R FFV, Favqulodda vaziyatlarda boshqaruv markazi. Ma'lumot blyutenlari.3 son

² O'sha manbadan.

taqchilligi va uning ifloslanganligi, Orol dengizining qurib borayotganligi, havo bo'shlig'ining ifloslanayotganlini alohida qayd etib o'tdi.

Ushbu turdagi favqulodda vaziyatlar tabiiy xarakterdagi favqulodda vaziyatlarga o'xshash bo'lib, ekologik xarakterdagi favqulodda vaziyatlarda ma'lum ma'noda insonning «xizmati» ham mavjud. Masalan, foydali er osti qazilmalarini qazish natijasida yuzaga kelgan o'pirishlar, er yuzasining siljishi, tuproq va er ostining sanoat tufayli kelib chiqqan toksikantlar bilan ifloslanishi, inson hayotiga xavf solayotgan zaharli moddalarning mavjudligi.

Atmosfera tarkibida yuz bergan o'zgarishlar bilan bog'liq bo'lgan vaziyatlar, ya'ni havodagi oltingugurt dioksidi, uglerodli oksid, qurum, chang va odamlar hayotiga xavf soluvchi zararli moddalarning ko'payib ketishi, Shu ningdek, sizot suvlari, suv manbalari va suv olish joylarining zararli moddalar bilan ifloslanishi va uning oqibatlari kiradi. Masalan, 2003-yilning 30-mayida Hindistonning bir necha shaharlarida xavfli gidrometeorologik jarayon sodir bo'lib, havo harorati 51,5°C ga ko'tarildi. Oqibatda, suv tanqisligi yuzaga kelib, 650 kishining nobud bo'lishiga sabab bo'ldi. Bunday misollarni hayotda ko'plab keltirish mumkin. Biroq Shu nday hodisalar yuz bermaydi, deb hech kim hech qachon kafolat bera olmaydi. Shu bois, favqulodda vaziyatlar yuz bergan sharoitda, kishi o'zini qanday tutishi va bu paytdagi xatti-harakati muhim o'rin egallaydi. Chunki, u o'zining hayotinigina emas, balki o'zgaralar umrini ham saqlab qolishi mumkin.

Favqulodda vaziyatlar yuz berganda, ularning hududiy jihatdan ta'sir doirasi, etkazgan zarar miqdori, Shu ningdek, jabrlangan insonlar soniga qarab lokal, mahalliy, respublika hamda transchegarali favqulodda vaziyatlarga bo'lish mumkin.¹

¹ Aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishning huquqiy asoslari.(me'yoriy hujjatlar to'plami). T. 2013 y. 22 b.

Nö	Favqulodda vaziyatlar	Jabrlanganlar soni	Hayot faoliyati buzilganlar soni	Moddiy zarar miqdori (minimal ish haqiga nisbatan)
1	Lokal	10	100	1000 dan ortiq bo'lmagan
2	Mahalliy	10-500	100-500	1000-500000 dan ortiq bo'lmagan
3	Respublika	500	500	500000 dan ortiq
4	Transchegarali	mamlakatlarda	favqulodda	vaziyatlar kiradi

1.2. Favqulodda vaziyatlarning ma'naviy hayotda aks etishi

Insoniyat o'z tarixi davomida yuz bergan turli tabiiy ofatlar, halokatlar va falokatlardan aziyat chekib kelgan. Shu bois uning yuz berishini oldindan aniqlash, keltirib chiqarishu mumkin bo'lgan iqtisodiy zaralarni kamaytirish, oqibatlarini bartaraf etish hamda o'z hayotini saqlab qolish maqsadida harakat qilgan. Buning uchun avvalo tabiiy ofatlarning kelib chiqish sabablarini intilishgan.

Tabiatda yuz bergan ko'plab hodisalar-er silkinishlari, o'pirilishi, cho'kish va surilishlari, sel,suv toshqini, kuchli yomg'ir yog'ishiva turli darajadagi dovul, to'fon, bo'ronlarning yuz berishi, qattiq qish va jazirama issiq, vulqonlar otilishi, yong'inlar va turli yuqumli kasalliklarning paydo bo'lishi insonlar, hayvonot va o'simlik dunyosiga keng ta'sir etgan, og'ir oqibatlariga olib kelgan.

Tabiiy ofatlar insoniyat tomonidan yaratilgan ko'plab moddiy madaniyat namunalarining, shahar va qishloqlarning vayron bo'lishiga, turli tsivilizatsiyalar inqiroziga, iqtisodiy qashshoqlanishga, millionlab odamlarning nobud bo'lishiga, hatto ayrim turdagi o'simlik va hayvonlar turlarining yo'q bo'lib ketishiga sabab bo'lgan.

Tarixda antik madaniyatning namunalari bo'lgan dunyoning yetti ajoyib mo'jizalarining 4 tasi turli tUSDagi favqulodda vaziyatlar oqibatida vayronaga aylangan.¹ Jumladan eramizdan avvalgi VI asrda Bobil hukmdori Navuxodonosarning qarmoniga binoan barpo etilgan Semiramida (Bobil) osma bog'lari suv toshqini oqibatida vayron bo'lgan. Misrda qad ko'targan Aleksandriya mayog'i eramizning 365 yili 21 iyulda O'rta yer dengizining sharqiy qismida yuz bergan kuchli zilzila oqibatida paydo bo'lgan sunami natijasida vayron bo'ldi. Bu sunami 50 ming kishini qurbon bo'lishiga olib keldi. Sitsiliya. Dalmatsiya, Misr va Yunoniston sohillariga sunami yopirildi. Aleksandriyada 50 ming kishi nobud bo'lishiga sabab bo'ldi.²

¹ Bolalar entsiklopediyasi "U kim, bu nima" 2 qism,T., 1987 y. 107 bet

² Ilyosova Z. "Sunami"// Muhofaza+ № 01, 2005 y., 25 bet.

Zevs jasorati sharafiga qo'yilgan haykal yer sikinishi oqibatida vayron bo'lgan.

Manbalarda, jumladan sobiq Sovet ittifoqi davrdagi tarix darsliklarida O'rta yer dengizidagi o'z xos taraqqiyot cho'qqisiga erishgan Minos madaniyati noma'lum sabablarga ko'ra yo'q bo'lib ketganligi aytilsa,¹ mustaqillik yillarida chop etilgan ayrim adabiyotlarda bu taraqqiyot tabiatning noxush hodisasi oqibatida inqirozga uchragan deb ma'lumot beriladi.

Insoniyat tarixida tabiat hodisalari yetkazgan salbiy oqibatlarga qarshi kurashar ekan, uning hayotida katta o'zgarishlar yuz berishiga, muayyan ma'noda inson hayotining tubdan o'zgarishiga, jumladan, diniy qadriyatlarimizda ham o'ziga xos qadriyatlarning shakllanishiga,² madaniyatning rivojlanishiga, ilmiy qarashlarning vujudga kelishiga majbur etgan. Jumladan, kuchli sovuq, qor, yomg'ir va to'fonlarning yuz berishi odamlarni kiyim o'ylab topishga, uy-joylarini barpo etishlariga, yer silkinishlari esa davrlar o'tishi bilan insoniyatni madaniylashishiga turtki bergan.

Faylasuf, Q. Nazarovning "Aksiologiya-qadriyatlar falsafasi" kitobida arab xalqlari qadriyatlaridan biri keltiriladi. Unga ko'ra mehmon kelganda dasturxon bezalib, uning usti yopib qo'yiladi. Mehmon dasturxonni ochishga ruxsat bermaguncha u yopiq turavervdi. Dasturxonni bunday yopiq turishiga sabab, shamolning ko'p bo'lishi va bir pasda u qumloq bo'lib qolishi bilan izohlanadi.

Tarixga nazar solsak, davrlar o'tishi bilan insoniyat hayoti takomillashib, ijtimoy munosabatlar murakkablasha borgan. Insoniyat hayotida dastlabki siyosiy tizim- qabilalar ittifoqi, so'ngra ancha mukammalashgan tizim davlatlar paydo bo'lgan. Bunday siyosiy tizimlarning shakllanishi ijtimoiy munosabatlarning tartibga kelishida muhim ahamiyat kasb etgan. Bu tizimlar insoniyatni tabiatga bo'lgan munosabatini ham ma'lum ma'noda belgilab bergan. Bunga mamlakat va xalqning xavfsizligi ya'ni xavfsizlikning tarkibiy qismi bo'lgan turli ko'rinishdagi

¹ Krushkol Yu.S tah ost. "Qadimgi dunyo tarixi", "o'qituvchi" nashr., T, 1975 y. 24 bet

² Nazarov H. "Aksiologiya qadriyatlar falsafasi", T. "Ma'naviyat", 1998 y, 65-bet

favqulodda vaziyatlarning oldini olish borasidagi jarayonlar ham kiritilgan. Albatta, bu davrlarda favqulodda vaziyatlarga oid hodisalarning oldini olish, ularning oqibatlarini bartaraf etish uchun maxsus davlat organlari tashkil etilmagan bo'lsada, bunday vazifalar davlatning boshqa organlari zimmasiga yuklatilgan. Chunki, bu davrda tabiatga antropogen ta'sirlaning sezilmasligi bois, bunday tizimlar yuqori darajada shakllantirilmay qolib ketgan.

Biroq, inson o'z xavfsizligini ta'minlash maqsadida tabiatda yuz berib turgan turli hodisalarning oldini olish va salbiy oqibatlarini kamaytirish uchun ularning sabablarini o'rganishga harakat qilgan. Bu esa insoniyat tafakkurida turli diniy qarashlarni, keyinroq ilmiy yondoshuvlarni paydo bo'lishiga sabab bo'lgan.

Jumladan, dinni vujudga keltirgan kundalik hayotiy shart-sharoitlar yig'indisi-ibtidoiy odamlarning butun hayoti tabiat injiqlariga bog'liqligi; ibtidoiy ishlab chiqarishning ayanchli ahvoli; ibtidoiy odamning tabiat kuchlariga qarshi kurashdagi zaifligi, ojizligi va buning oqibatida o'zlarini ezib kelgan tabiatning stixiyali hodisalaridan, kuchlaridan paydo bo'lgan qo'rquv¹ dan iborat bo'lgan.

Qadimgi xalqlar e'tiqod qilgan dinlar mazmuniga e'tibor berilsa, Quyosh, Oy, suv, bo'ron, shamol kabi ko'plab tabiatdagi mavjud jismlar va hodisalar xudolar nomi bilan atalganini ko'rish mumkin.

Jumladan, dastlabki diniy ko'rinishlardan bo'lgan – animizmning mohiyatini tabiat xodisalari tashkil etadi. Bu diniy ko'rinishda odamlar o'zlarini o'rab turgan muhitda jonlar va ruhlarning mavjudligiga ishonishgan. Fasllarning almashinuvi, bo'ron, momaqaldiroq, kuchli to'fonlarning yuz berishi kabi hodisalarni ruh mujassamlashtirgan tabiat hodisalari², deb tutirganlar va unga sig'inganlar, sajda qilganlar. Masalan, rimliklar osmon, momaqaldiroq va yashin xudosi-Yupiter, dengiz xudosi Neptun, Oy xudosi Diana, vulqonni oliv va temirchilar xudosi, bahor va sevgi xudosi Venera³ deb, misrliklar esa Quyosh xudosi Amon-Ra, Xapi- Nil xudosi, Osiris-yer saltanati xudosi, Set-Osirisning birodari,

¹ Jo'raev U., Saidjonov Y. "Dunyo dinlari tarixi", "Sharq" nashriyoti, T.-1998 y., 21 bet

² Krushkol Yu. S tah ost. "Qadimgi dunyo tarixi", "O'qituchi" nashriyoti, T.1975 y. 24 bet.

³ Krushkol Yu. S tah ost. "Qadimgi dunyo tarixi", "O'qituchi" nashriyoti, T.1975 y. 29 bet

omadsizlik, sahro va bo'ron xudosi, Tot-Oy donishmandlik va tabiblik ilohi,¹ deb bilgan bo'lsalar, yunonlar Zevsni o'zlarining ulug' xudosi deb hisoblaganlar. Poseydo Zevsning ini, dengiz xudosi, Gelios- Quyosh xudosi, Geya-yer xudosi, deb unga sig'inganlar. Mesopatamiya xalqlari tarixida Quyosh xudosi Shamash, Sina-Oy xudosi, suv xudosi- Yea² va boshqalar bo'lgan.

Qadimgi xalqlar hayotidan osmon va yer jismlari, Shu ningdek tabiat hodisalari bilan bog'lab atalgan ko'plab xudolar nomini keltirish mumkin.

Agar yuqorida nomlari keltirilgan xudolar nomiga e'tibor berilsa, u holda, bu xalqlar o'sha davrda o'z hayotlarini osmon jismlariga qanchalik bog'lab sajda qilganlarini, Shu ningdek, tabiat hodisalarini qaysi turlari ko'proq yuz berib, ular hayotiga xavf solib turganini anglab yetish qiyin emas. Masalan, Rim va Yunoniston xalqlari tarixida sahro va bo'ron xudosi uchramaydi. Chunki, bu xalqlar yashayotgan hududning geografik joylaShu vi va yerning geologik tuzilishi bunday turdagi tabiiy hodisalarning yuz berishiga yo'l qo'ymaydi. Bu xalqlar hayoti ko'proq dengi bilan bog'liq bo'lganligi bois, dengizda yuz bergan dahshatli to'lqinlar va to'fonlar ular hayotiga katta ta'sir etgan. Shu sababli, bu xalqlar "dengiz xudosi"ni yaratganlar va unga sig'inganlar. Bu xalqlar tarixida ikki daryo- Frot va Dajla oralig'ida ko'proq yuz berib turgan suv toshqig'larini aks ettiruvchi suv xudolari mavjud.

Biroq barcha xalqlar uchun Quyoshning nur sochib turishi, tunda Oyning charog'onligini yilni yaxshi kelayotgani, turli tabiiy ofatlar yuz bermaganligi, odamlarlarning tinch, osuda hayot kechirayotganligidan dalolat beradi. Shuning uchun ham bu xudolarni yezgulik, donishmandlik, go'zallik xudolari, deb bilganlar. Hatto Misrda Quyosh xudosi sharafiga ibodatxonalar barpo etilgan.³ Eramizning 46-120 yillarida yashagan Plutarx Xeronskiyning "Izida va Oziris To'g'risida" nomli kitobida Nil daryosining Misr xalqi hayotida tutgan o'rni gapiriladi. Holbuki, kitobda tabiat xudolari Izida va Oziris haqida gap boradi.⁴

¹ O'sha manbada, 29-bet.

² O'sha manbada, 35-bet.

³ Krushkol Yu. S tah ost. "Qadimgi dunyo tarixi", "O'qituchi" nashriyoti, T.1975 y. 131 bet.

⁴ Abdiev V.I. "Qadimgi dunyo tarixi", 1975 y. 159-bet.

Yurtimiz hududida zardushtiylik paydo bo'lgunga qadar ko'pxudolikka e'tiqod qilingan. Ular tabiatning va ijtimoiy hayotning alohida sohalarini boshqarib turuvchi tangrilar hisoblangan. Masalan, Parendi- sokinlik, barqarorlik, farovonlik ma'budi hisoblangan. Shamol, bo'ron, to'fon va o'lim xudosi- Vayu bo'lgan. Vata-zardushtiylikka bo'lgan davrda yomg'irli bulutlarni haydab keluvchi shamol tangrisi hisoblangan. Bundan tashqari uzoq o'lkalarda, tog'li hududlarda xudolar ham bo'lib, ular tabiatan qahri qattiq devlar hisoblangan.¹

Tabiiy ofatlar va ularni bartaraf etish O'rta Osiyo xalqlari e'tiqod qilib kelgan din – “Zardushtiylik” va uning muqaddas kitobi “Avesto” da ham uchraydi. Shuningdek, bu kitobni mamlakatimiz tarixida yuz bergan favqulodda vaziyatlarning tabiiy xaraktega yega bo'lgan ko'plab turlarini bartaraf etishda va ularning oldini olishda ilmiy yondoshilgan, diniy manba, deb atash mumkin. Hozirgi kunda ham tabiiy hodisalarning oldini olish maqsadida kitobda begilangan tadbirlar va ilgari surilgan g'oyalar o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Shu bilan birga bu kitobda insonning hayotiy omillar, uning turmush tarzi, ruhiy olami, ijtimoiy-axloqiy hamda diniy qirashlari ham aks etgan.

Kitobda ezgulik xudosi Axura Mazda, o'lim va yovuzlik xudosi Ahriman o'rtasidagi kurash jarayoni tabiat hodisalari bilan bog'lab izohlangan. Bu esa o'sha davrda tabiat hodisalarining qaysi turlari odamlar hayotiga sezilarli miqdorda ta'sir etganligini ko'rsatadi. Masalan, Axura Mazda ikkinchi “sarzamin” So'g'dni yaratdi. “...butun borlig'i ajal bilan yo'g'rilgan Ahriman keldi-da, xrafstarlar jinsiga mansub Sakayatyani yaratdi. U butun podaga o'lim urug'ini sochdi.”² Podaga o'lim urug'ini sochgan Sakayatya ushbu kitobda “zaharli hasharot” deb aytilsa, boshqa bir mabada u “pashsha” deb ko'rsatilgan. Ahura Mazda “Marv” ni, “Ahriman” kelib “chumolini”, “Ahura Mazda” kelib “Balx” ni, “Ahriman” kelib “...gazandalik bilan maysa va g'allani quritadigan chigirtkani yaratdi”. Bundan ko'rinib turibdiki, chigirtka va chumoli galalari yuqorida qayd etilgan hudud aholisining dehqonchilik va chorvachiligiga katta zarar yetkazgan.

¹ Karim T. “Muqaddas “Avesto” izidan”, “Cho'lpon” nashriyoti 2000 y. 80-bet

² Asqar Mahkam tarjimasi, “Avesto” tarixiy-adabiy ydgorlik, “Sharq”, 2003 y., T., 123-bet

“Avesto” kitobining beshinchi fargardida suv, sel va olov xususida to’xtalib, unda Shu nday deyiladi: “...Suv hech kimni o’ldirmaydi. U tan zavoli, o’lim devi Astuvayazutudirki, kimsani o’z domiga tortadi va oyoq-qo’llarini mahkam bog’lab tashlaydi. Shunda selob uni o’z qa’riga tortib suv kenliklariga itqitib yuboradi.” Bugungi kunda ham xalqimiz orasida suv devi, farishtasi degan tuShu ncha mavjud.

Zardo’shtiylik dinida insonning hayot kechirish omillari bo’lgan suv, tuproq (yer), olov, tog’lik va muzliklar hamda hayvonot olamiga juda ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo’lish ko’rsatilgan. Bu dinga e’tiqod qiluvchilar tomonidan suv, olov, havo va zamin ulug’langan. Ularni sof saqlashga harakat qilingan va u ular sofliги inson yashab qolishining muhim omili hisoblangan. Jumladan, osmondan yomg’irga ilohiy suyuqlik xumni qo’shdirib yog’diradigan farishta- Xurdodning asosiy vazifasi suvni har qanday nopoklikdan asrash va doimiy oqib turishini ta’minlashdan iborat bo’lgan. Shuning uchun gotlarda suvni avaylab sarflash, uning pokligini asrashga bo’lgan da’vatlar uchraydi. Holbuki, bugungi kunda ushbu da’vatlarga bo’lgan ehtiyoj yanada oshmoqda. Hatto, suv, otash, yer va havoni asrash, ya’ni ularni e’zozlash qoidalarini buzgan har bir inson 400 qamchi kaltaklanish bilan jazolangan. Bundan ko’rinib turgan asosiy narsa o’sha paytlarda yuz berishi mumkin bo’lgan noxush vaziyatlarning oldini olish uchun mavjud tartiblarni buzganlarni jazolashning o’ziga xos tuzilmalari yaratilgan, deb xulosa qilish mumkin.

Shu bilan bir qatorda bog’-rog’lar barpo etishda o’ziga xos bo’lgan ilmiy yondaShu vlar vujudga kelgan. Masalan, suvni toza tutish uchun ariqlar, quduqlar umumiy qilib aytganda suv bo’lgan havzalarga yaqin joylarda mevali daraxt ekish taqiqlangan. Chunki, ularning mevasi suvga tushib chiriydi va unda turli yuqumli mikroblar paydo bo’ladi. Suvni iste’mol qilgan kishi esa bu kasallikni yuqtirishi mumkin, deb bilishgan. Bundan tashqari suv bo’yida ekilgan mevali daraxtning mevasi shirin bo’lmasligini ham anglab yetishgan. Suv o’zanlari bo’lgan bunday joylarda mevasiz, ihota daraxtlari ekilgan. Bu daraxtlar ariqlar va daryolar

qirg'oqlarini mustahkamlagan, ularning o'pirilib ketishlarini hamda yer erroziyasi yuz berishining oldini olishda o'ziga xos vosita vazifasini bajargan.

Zardo'shtiylikda suvning sofliğini ta'minlash maqsadida unga tupurish, xas, cho'p yoki boshqa biror narsa tashlash qattiq taqiqlangan. Bunday qoidalarni buzganlarga tan jazosi berilgan.

"Avesto" da hovuz yoki quduqqa biron o'limtik yoki iflos narsa tushsa uni toza suv yoki yomg'ir suvi bilan bir necha marta qatron qilish yo'li orqali tozalash tavsiya etilgan. Suv manbalari bo'yida kir yuvish, mol boqish, tuya va otlarni bog'lash, tahorat olish man etilgan. Shu ningdek, biron kishining nopok, toza idish bilan suv olayotgani mirob nazariga tushsa bunday kishi 25 qamchi urish bilan jazolangan.

Suv muqaddas hisoblangani sababli suvdagi noyob tirik mavjudodlarni yo'qotish qattiq jazoga tortilgan. Bunday vaziyat tabiatning boshqa hodisalarini kelib chiqishiga sabab bo'ladi, deb tuShu nganlar. Masalan, qurg'oqchilik bo'lishining sabablaridan biri dengiz muShu gini o'ldirishdir, deb aytilgan va uni o'ldirgan kishiga 18 qismdan iborat jazo tayinlangan.

Kitobda suvga noto'g'ri munosabatda bo'lgan kishining gunohi umrbod kechirilmagan. Unda Shu nday deyiladi: "Zardo'sht so'radi: biron mozdaparast suvga yoki otashga bulg'anch narsani tashlasa, o'z gunohini yuvib poklansa bo'ladimi?

Ahura Mazda javob berdi: -yo'q, unday odamning gunohini hech narsa bilan pok etib bo'lmaydi. U abadul abadul-abad nopok, gunohkorligicha qoladi. Unday odam do'zaxiylardandir. U pashsha va chigirtkalarga rivoj istaydi; giyohlarga qirg'in keltiradigan qurg'oqchilikka avj tilaydi."¹ Bundan ko'rinib turibdiki, suv, havo, zamin va olovni ifloslantirgan kishilarga nafaqat jismoniy, balki ma'naviy-ruhiy jazolar belgilangan.

Bu davrda mirobdarning bo'lishi va ularga ma'lum vakolatlar berilishi suv bilan bog'liq bo'lgan turli noxush vaziyatlarning oldini olish uchun muayyan, o'ziga xos tizim shakllanganligini ko'rsatadi.

¹ Asqar Mahkam tarjimasi, "Avesto" tarixiy-adabiy yodgorlik, "Sharq", 2003 y., T., 123-bet

Zardo'shtiylikda o'g'ri, nopok zinokor odamlar uchun qattiq jazi tayinlangan. Nopok odam suv manbalariga yaqinlashtirilmagan. Hayz ko'rgan xotin-qizlar hovuz va ariqlardan 15 qadam naridan o'tish lozimligi "Vandidod"da maxsus ko'rsatilib o'tilgan. Xalqimizning ajdodlardan avlodlarga o'tib kelayotgan urf-odatlaridi suv ro'shnolik, yorug'lik, poklik ramzi hisoblangan, Shu bilin birga u turli kasalliklardan forig' etuvchi, yurtga obodlik, elga farovonlik olib keluvchi omil sifatida e'zozlangan.

Kasallik tarqatadigan hayvon va hashorotlarni yo'qotishga da'vat etilgan holda "Avesto"da o'y jonivorlarini ehtiyot qilishga chaqirish kuchli bo'lgan.¹

Ajdodlarimiz tomonidan e'tiqod qilib kelingan ushbu dinda insonlarni yashab qolish uchun yuz bergan yoki yuz berayotgan tabiiy ofatlarga qarshi kurashda o'ziga xos tadbirlar tizimi shakllangan. Odamlarning qilgan qilmishlari va gunohlariga qarab tabaqalashtirilgan. Jumladan, ayrim gunoh turlariga ming pashshani o'ldirish yoki Shu ncha suv qo'ng'izini yo'q qilish jazosi tayinlanagan. Buni esa turli yuqumli kasalliklar, ya'ni virus taShu vchi jonzotlarning ko'payishining oldini olishga qaratilgan tadbirlardan biri, deb hisoblash mumkin.

O'rta Osiyo iqlimi – qishi sovuq, yozi issiq-kotidental. Shu boisdan, qadimdan qish qattiq sovuq kelgan va u odamlar hayotiga hamda ular shu g'ullanib kelgan xo'jalik turi chorvachilik rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatgan. "Avesto"da tabiiy tusdagi favqulodda vaziyatlarning bu turi keltirilgan salbiy oqibatlari, unga qarshi kurashish va undan saqlanish uchun tashqi iqlimdan izolyatsiya qiluvchi boshpanalar barpo etish haqida gapirilgan. Unda: "Qahrli qahratondan burun suvlar shiddat bilan oqqan bu zaminlarda giyoh va o't-o'lanlar g'oyat serob bo'ladi, ammo qahraton oyog'i yetib, u butunlay kirib kelgach, vorlarning quturishini ko'rsang. Endi bu zaminda suruvlarning hayratbaxsh oqimlaridan nom-nishon topolmaysan" deyilgan bo'lsa, ikkinchi fargardning 25-bandida bundan saqlanmoq uchun nima qilmoq kerakligi ezgulik xudosi Ahra Mazda tilidan aytiladi. Unda: "Shundan so'ng-sen, ey Jam! Har birining to'rt tomoni aspriys uzunligida bo'lgan var bino vil. Qo'ylar, tuyalar, odamlar, itlar, parrandalar va kuydurguvchi qizil

¹ X. Xamidov "Avesto fayzlari". A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashr., T. 2001-yil, 67-bet

olov urug'larini u yerga olib bor. So'ngra: -sen ey Jam!-odamlarning yashamog'i uchun har birining to'rt tomoni aspriys uzunligida bo'lgan var bino qil. Sigirlar va qo'ylar uchun har birining to'rt tomoni aspriys uzunligida bo'lgan var barpo ayla".

Bu yerda "var" –er osti joyi(er to'la) ma'nosida berilgan. Bu esa qadimdan boshlab odamlarning tabiai hodisalaridan biri bo'lgan qahraton qish, qattiq sovuq, kuchli qor va bo'ronlaridan, ayozli kunlardan saqlanib qolishlar uchun uy-joylar qurishga, uni issiq sqalashga harakat qilganliklaridan dalolat beradi. Uy-joy qurish ishlari vaqtlar o'tishi bilan takomillashib, o'ziga xos imoratsozlik madaniyatini va bu sohaga oid ilmiy yondaShu vlarni rivojlantirgan. Imoratsozlik madaniyatining rivojlanishida tashqi va ichki , ayniqsa xavfsizlikni ta'minlashga oid omillar birinchi darajada e'tiborga olingan.

Markaziy Osiyo xalqlari, jumladan O'zbekiston tarixida Zardo'shtiylik dinidan so'ng Islom dini muhim o'rinni egallaydi. Islom dini zardo'shtiylik dinidagi ko'plab odat va e'tiqodlarni sekin-astalik bilan siqib chiqargan bo'lsada, uning ayrim jihatlarini, shuningdek tabiat va uning hodisalarini ma'naviy-axloqiy qarashlarga bog'lab tushuntirish bilan yanada boyitdi.

Xalqimiz e'tiqod qilgan har ikki dinda ham tozalik, soflik, poklik va me'yor kabi xislatlar ulug'langan. Kelib chiquvchi turli kasalliklar, insonlarni aziyat chekishga olib keluvchi voqieliklar, Shu ningdek tabiat hodisalarining yuz berishida yuqoridagi insoniy xislatlarga amal qilmaslik, deb talqin etilgan. Holbuki, bugungi kunda ana Shu xislatlarga e'tiborsizlik oqibatida tabiatda yuz berayotgan ko'plab turdagi favquddodda vaziyatlarning asosiy sababi antropogen ta'sirning oshib ketganligi, deb baholanmoqda. Jumladan Islom dinining muqaddas kitobi bo'lgan "Qur'oni Karim"ning "Qamar" surasining 49-oyatida: "Albatta, biz barcha narsani o'lchov bilan hal qildik"¹, "Furqon" surasida "Oллоh hamma narsani yaratdi va o'lchovini mukammal qildi." deyiladi. Boshqacha qilib aytganda, dunyodagi har bir narsa: suv ham, tuproq ham, havo ham, hayvonot ham, nabobat ham Oллоh Taolo tomonidan muayyan o'lchov bilan bir-biriga bog'liq qilib yaratilgan. Agar bu muvozanat bir oz buziladigan bo'lsa, insoniyat uchun

¹ Qur'oni Karim. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf tarjimasi. Sharq. 2009y. 531-bet.

qator-vator muammolar kelib chiqishi va natijada tabiat muhofazasi halokatga borib yetishi mumkin.¹

Islom ta'limoti bo'yicha tabiiy ofatlar insonni sinash va ularni azoblash uchun Yaratgan tomonidan yuborilgan hodisalardir. Bu haqida Qur'oni Karimda Shu nday marhamat qilingan: Odamlarning o'zlari qilgan qilmishlari sababli quruqlikda ham , dengizda ham (turli) ofat-balolar yuz berdi. (Bu balo va ofatlar odamlar qilayotgan gunoh-ma'siyatlaridan) qaytishlari uchun, ularga qilgan gunohlarining (jazosini) totdirib qo'yish uchundir.²

Mazkur oyat tafsirida shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf Shu nday deydilar: *“Odamlardagi buzuvchi e'tiqod va tasavvurlardan fisqu fasod kelib chiqadi. Bu esa, o'z navbatida ,quruqlikdayu dengizda buzg'unchilik ustun kelishiga sabab keladi. Odamlar qilgan gunohlar va fisqu fasod o'zlarining boshlariga balo-ofat keltiradi. Bu musiybatlari ularga tanbeh bo'lishi, zalolatdan hidoyatga, noto'g'ri yo'ldan to'g'risiga qaytishlariga sabab kerak. Ha , odamlar boshlariga tushayotgan tushayotgan balo-ofatlardan ibrat olsinlar, vaqtida Alloh taologa qaytsinlar³”*.

Har bir tabiiy ofatning o'ziga yarasha tarixi va undan saqlanish yo'llari Islom dinida batafsil o'rganib chiqilgan masaladir. Alloh Taolo musulmon ummatiga o'tgan payg'ambarlar tarixini Qur'on oyati qilib nozil qilar ekan, ulardan ibrat olishga chaqiradi. Ularning tabiiy ofat ma'nosidagi eng avvalgisi Nuh alayhissalomning qavmlari edi. Nuh alayhissalomning nomlari Qur'oni Karimda 43 bora zikr qilinadi. Alloh aytadi: Aniqki , Biz Nuhni o'z qavmiga(payg'ambar qilib) yubordik. Bas , u ularning orasida ellik yili kam ming yil turdi (ular iymon keltirmadilar), bas ularni zolim-kofir bo'lgan hollarida to'fon (balosi) tutdi.⁴,

Sarkashlik eng yomon illat ekanligi, hatto to'fon balosiga giriftor etiluvchi gunoh ekanligi yuqoridagi iqtiboslardan ochiq-oydin ko'rinib turibdi.To'fon voqeasi Shu qadar mashhurki, u haqida istalgan xalqda rivoyat va afsonalarni

¹ Ibrohimov. A”Ruhiiy oziq mahzani”. T.”Yangi asr avlodi”.2009 . 161-162 betlar.

² Rum , 41

³ Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tafsiri hilol. To'rtinchi juz. Tuzatilgan va qo'shimcha qilingan ikkinchi nashr.-T.”Sharq”, 2008 yil.b 487

⁴ Ankabut, 14

uchratish mumkindir. Bu bilan faqat bir narsa isbotlanadi: to'fon voqeasi haqiqatdan ham bo'lgan va u insonlarni jazolash uchun Yaratganning irodasidir.

Qur'ondagi suralarning biri ham bejizga "Nuh" deb nomlanmagan. Nuh alayhissalomning qavmlari juda ham adolatsiz ekanliklari quyidagi hadisi sharifd yaqqol ifoda etilgan:

Abu Said roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: "Rasululloh sollallohu alayhi vassalam Shu nday dedilar: "(Qiyomat kuni) Nuh (a.s) va u zotning ummati keladi. Alloh Taolo: "Senga buyurilgan dinni yetkazdingmi?" deb so'raydi. Bas, (Nuh alayhissalom): " Ha, ey Robbim!", deydi. Bas , (Alloh Taolo) u ummatdan: (Nuh alayhssalomdan): dinni yetkazdimi?" deb so'raydi. "Yo'q!"-deya javob beradilar. (Alloh Taolo): "Bu borada kim senga guvohlik beradi?"- deydi Nuh (a.s)ga. "Muhammad (s.a.v) va ummati , (deydi Nuh a.s). unga bu borada shohidlik beriladi."'¹

Ko'rinadiki, ular Alohning azobidan qutulib qolish uchun haqni botil deyishdan ham qaytmaydilar.

Insonlar mana shu to'fon sababli halok etildilar. "Odam ahli aksari Nuh naslidindir. Bu jihatdan ani ikkinchi Odam debdurlar."'²

Arxeologik qazishmalar natijasida ma'lum bo'lishicha, to'fon Dajla va Frot oralig'ida joylashgan Mesopatamiyada sodir bo'lgan³.

Navbatdagi halok etilgan qavm bu-Od. Bu borada Alloh haq subhanahu va taolo Shu nday marhamat qiladi: "Va Odga o'z birodarlari Hudni (yubordik). U ey qavmim, Allohga ibodat qiling. Siz uchun undan o'zga iloh yo'qdir. Sizlar faqat to'qib oluvchilarsiz, xolos."

Mazkur oyatlarni tafsir qilar ekan shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf shunday yozadi:

Bu qavm dengiz bo'yida, ko'chib yuruvchi qumliklar ichida Ahqof nomli joyda, Yaman, Ummon va Hazaramat o'rtalig'idagi makonda yashab o'tganlar. Ular baland bo'yli, keng yag'rinli kishilar bo'lib, haybatli chodirlarda yashaganlar.

¹ Buxoriy "Payg'ambarlar bo'limi", 3; Termiziy 2965; Ibn Mojja, 4284

² Alisher Navoiy. MAT. 16 tom.- T "Fan", 2000- b 106.

³ Xarun Yaxya. Pogublenne narod.- stambul, 2011.- str .20

Shuning uchun ham Od qavmi o'z zamonasidagi eng quvvatli kishilar deb talqin qilinadi. Ular doimo "Qani bizdan ham kuchli odamlar bormi?" deb maqtanib yurishar edi. Ularning gavdvleri katta bo'lsa-da, aqllari past edi. Doimo but va sanamlarga sig'inib, ularning himoyasi uchun urushib yurishardi.

Alloh taolo ularni hidoyatga boshlash uchun o'zlaridan bo'lgan Hud a.s.ni Payg'ambar qilib tanladi. U kishi bu qavmga Allohning amrini yetkazdilar. Lekin ular qabul qilmadi. Hud a.s bilan Od qavmining yetakchilari o'rtasida Alloh, qiyomat kunining haqligi, o'lgandan keyin qayta tirilish borligi va boshqa mavzularda bir qancha tortishuvlar bo'lib o'tdi. Qavm o'z fikrini ma'qullab, Hud a.s. boshlagan hidoyatga yurmadi. Ko'plab urinishlardan so'ng Hud a.s. o'z qavmlarining iymonga kelishiga umidlarini uzdilar. Shu bilan birga, ular Alloh taoloning azobiga duchor bo'lishlari muqarrar ekanligini ham ta'kidladilar. Hud payg'ambar ham, noshukr qavm ham nima bo'lishini kutib turdilar. Ko'p o'tmay qurg'oqchilik boshlandi. Yomg'ir yog'may qo'ydi.

Od qavmi Hud a.s. huzurlariga kelib "Nima bo'lyapti, o'zi?"- deb so'radilar. Hud Payg'ambar: "Allog' sizlardan g'azablandi, agar unga iymon keltirsalaringiz, u sizlardan rozi bo'ladi va osmondan yomg'ir yog'diradi, quvvatingizga quvvat qo'shadi", dedilar. Qavm esa, u zotni masxara qilib, o'z bilganidan qolmadi. Qurg'oqchilik ofati avjiga chiqib, u yerdagi bor dov-daraxtlarni, o'simliklarni quritib bitirdi.

Kunlardan bir kun, kutilmaganda, osmonni bulut qopladi. Od qavmi bu holdan xursand bo'lib, mana, endi yomg'ir yog'adi, deb ko'chaga chiqdilar. Birdaniga havo keskin o'zgardi. Kuchli sovuq shamol turdi. Hamma narsa larzaga kela boshladi. Od qavmi o'zlarini chodirlarga urdilar. Shamol esa, chodirlarni ham uchirib ketdi. Kuchli, sovuq shamol avval kiyim-boshlarni, keyin kishilarning terisini yirtib, ularni parchalab tashladi. Yetti kecha-yu sakkiz kunduzdan keyin shamol to'xtadi. Bu paytga kelib Od qavmining barcha a'zolari tomiri qurib, g'ovak bo'lib qolgan xurmo daraxtlaridek qulab yotardilar. Ulardan birortasi ham tirik qolmagan edi. Haq subhanahu va taolo yuqoridagi oyatlarda ana Shunga ishora qiladi.

Qur'oni Karimning "Shuaro" ("Shoirilar") surasida Lut qavmi haqida oyatlar berilgan.¹ Lut a.s. qavmida axloqsizlik nihoyatda avj oladi. Lut a.s. ularni Allohning g'azabidan qo'rqitib, kechayu-kunduz nasihat qiladilar. Ammo qavmi bu jirkanch odatidan voz kechmaydi. Shunda Alloh taolo ularga qattiq jazosini yubordi: "... va ularning ustiga bir yomg'ir yog'dirdiki, bas ogohlantirilganlarning yomg'iri qandoq ham yomon bo'ldi!"² izohlarda keltirilishicha, Alloh taolo ularning ustiga tosh yog'diradi, qattiq zilzila bilan maskanlarini ostun-ustun qilib tashladi. Dunyo xaritasidagi hozirgi Lut ko'li (O'lik dengiz) o'sha qavm mamlakati o'rnida bo'lgan.³

Alloh taolo tomonidan yana bir qavm Samud qavmiga yuborilgan payg'ambarlarimizdan biri Solih a.s. dir. Bu qavm Shom bilan Hijoz o'rtasidagi Hijr degan joyda, ulkan tog'larni o'yib qurilgan baland uylarda yashaganlar. Ammo Allohga shirk keltirib, butlarga sig'inishgan. Solih a.s. ana Shu qavmni yagona Allohga ibodat qilishga da'vat etganlar. Qavm esa iymon keltirmagan, buning ustiga mo'jiza sifatida keltirilgan va zarar yetkazish ta'qiqlangan tuyani so'yib yubordi. Uch kundan keyin dahshatli bir ovoz eshitilib, kofir qavmning bari halok bo'ldi. Qur'oni Karimda Solih a.s. haqida bir qancha oyati karimalar berilgan.⁴

Aynan ushbu surada yana Shuayb a.s haqida oyatlar keltiriladi.⁵ Shuayb a.s. Madyan o'lkasidagi Ayka aholisini haq dinga da'vat etadi. Bu qavm savdo-sotiqda hiyla qilar. Tarozidan urib qolar va shu yo'l bilan pul topar edi. Ular Shuayb a.s. ning da'vatlarini tinglamadi va Allohning azobiga giriftor bo'ldi. O'lkada yetti kun havo juda isib ketdi, hatto suvlar qaynadi. So'ngra osmonda bulut paydo bo'lganini ko'rib, hamma uning ostigi to'plandi. Shunda bulutdan olov yog'ilib, zalolatdagi qavm aholisi yonib ketdi.⁶

¹ Qur'oni Karim "Shuaro" surasi, 160-173 oyatlar.

² Qur'oni Karim "Shuaro" surasi, 173 -oyat.

³ WWW.ISLOM.UZ Ahmad Muhammad mual. "Ma'nolar xazinasini" kitobi asosida tayyorlangan versiya.

⁴ Qur'oni Karim "Shuaro" surasi, 141-158 oyatlar, "Naml" surasi 45-51 oyatlar.

⁵ Qur'oni Karim "Shuaro" surasi, 176-189 oyatlar

⁶ WWW.ISLOM.UZ Ahmad Muhammad mual. "Ma'nolar xazinasini" kitobi asosida tayyorlangan versiya.

Albatta, islom dini ta'limotiga ko'ra, barcha balo-ofatlar, yuqorida ta'kidlanganidek, insonlarni ogohlantirish va jazolash, Allohning kuch-qudratini ko'rsatib qo'yish, keyingi qavmlarga ibrat bo'lishi uchun Yaratganning xohish-irodasi bilan sodir bo'ladi.

Biz yuqoridagi sarkash qavmlar misolida Alloh taoloning ular ustiga yuborgan ofatlarini ko'rib chiqdik. Balolar goh shamol ko'rinishida, goho yomg'ir ko'rinishida insonlar sira ham kutmagan joylardan yuborilgan. Shuning uchun ham biror bir tabiiy hodisa soddir bo'lganida o'qilishi lozim duolar Payg'ambarimiz a.s. tomonlaridan o'z ummatlariga o'rgatib ketilgan. Qo'yida ularning ba'zilar bilan tanishib chiqamiz:

Shamol esganda o'qiladigan duo: "Allohim, men Sendan buning yaxshiligini berishingni va yomonligidan panohingni so'rayman".¹ Yomg'ir yoqqanda o'qiladigan duo: "Allohim, buni rahmat yomhiri qilgin!"²

Chaqmoq chaqqanda o'qiladigan duo: ³"Maloikalarning ibodati va o'ziga aytiluvchi hamd sharofati bilan momaqaldiroq balosidan asrovchi Alloh barcha nuqsonlardan pokdir".⁴

Zaminimizdan yetishib chiqqan buyuk mutafakkirlarimiz ham o'zlarining bir qator asarlarida tabiiy ofatlarga oid o'z qarashlarini bildirib o'tganlar.

Dunyo ilm-fan beshigini Sharq allomalari tebratgani tarixdan ma'lum. Mutaxassislarning ma'lumotlariga qaraganda, IX — XV asrlar davomida islom olamida 700 dan ortiq nomdor olimlar yetishib chiqqan bo'lib, ulardan besh yuz nafari O'rta Osiyoliklar ekan. Qomusiy bilim va benazir aql sohibi bo'lgan ulug' ajdodlarimiz bu sohada ham yetti iqlimni lol qoldirgan. Xususan, Turonzaminda ilm-fan qadimdan sayqal topgani, Shu ningdek, ajdodlarimiz tabiat va jamiyat haqidagi dastlabki amaliy va ilohiy bilimlari, asotirli qarashlari mujassamlashgan "Avesto" kitobidan tortib, yaqin davrlargacha yaratilgan turli sohadagi

¹ Sahih ul-Buxoriy 4/76, sahih ul- muslim 2/616

² Sahih ul-Buxoriy 2/518

⁴ Al- Muvatto 2/992

kashfiyotlarini sarhisob qiladigan bo'lsak, xalqimiz nihoyatda katta ilmiy salohiyatga ega ekanligi ayon bo'ladi.

Darhaqiqat, tabiiy ofatlarni oldindan aytib berish yoki ularni bartaraf etishning ilmiy asoslarini ishlab chiqishda ham allomalarimizdan o'tkazib isbotlaydiganlar o'tmishda juda kam bo'lgan. Ayniqsa, o'rta asrlarda Turonzaminda yashab o'tgan Muhammad Muso al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Ahmad al-Farg'oniy kabi ajdodlarimiz tabiat fani rivojiga alohidahissa qo'shganlar. Ular hali ekologiya fani dunyoga kelmagan davrdayoq tabiat va undagi muvozanat, o'simlik va hayvonot dunyosi haqida qimmatli fikrlar aytishgan. Xususan, Beruniy bobomiz tabiat haqida fikr bildirib, "Ekin va nasl koldirish bilan dunyo o'zgarib boraveradi", degan edi.

Tarix zarvaraqlariga nazar tashlasak, buyuk bobokalonimiz Ahmad al-Farg'oniy ham favqulodda vaziyatlarni oldindan aniqlash qobiliyatiga ega bo'lgan zotlardan biri ekanligiga amin bo'lamiz.

Farg'ona vodiysining qadimiy Kubo (hozirgi Kuva) shahrida tavallud topgan, ilmiy zakovatiga butun dunyo tan bergan Ahmad at-Farg'oniy nomdor olimlarning sardorlaridan biri bo'lgan. Al-Farg'oniy Misrda "Miyyos an-Nil" — Nil daryosi sathini o'lchashga mo'ljallangan inshoot qurilishiga bosh-qosh bo'ladi. Uning loyihasini o'zi yaratadi. Ushbu inshoot bir necha asr davomida Misrning iqtisodiy va siyosiy hayotida muhim rol o'ynaydi. Uning loyihasi XX asrning 80-yillarida ko'rilgan Asvon tug'oniga asos bo'ladi. Misrdagi azim Nil daryosi ko'tarilib, toshib turishini oldindan aniqlash mumkin bo'lmagan chog'larda al-Farg'oniy maxsus asbob — "Nilometr"ni kashf etganini butun dunyo afkor ommasi yaxshi biladi. Tabiiyki, bu asbob Nil daryosi sathini aniqlashda juda asqotgan. Shu tufayli uning gidrologik ta'rifi ham bebaho hisoblanadi. Chunki daryodagi suv sathining past yoki balandligiga qarab, qurg'oqchilik yoki suv toshqinidan ogoh etib, misrlik merob va dehqonlarning og'irini yengil qilgan ekan.

Insonlar taqdirini o'ylab, bir qancha vaziyatlarni chuqur o'rganib, o'sha davrdayoq azim daryo o'zanida barpo etilgan nilometrdan bugungi kunda ham foydalanib kelinayapti. Demak, ko'pgina asrlar mobaynida dengizchi va

karvonboshilar foydalangan, yulduzlar harakatini o'lchaydigan asbob — usturlobning ixtirochisi ham yurtdoshlarimizdan biri ekan.

Buyuk vatandoshimiz kashfiyotlariga Prezidentimiz yuksak baho berib, "Buyuk astronom, muhandis va tadqiqotchi al-Farg'oniy nomi butun ma'rifiy dunyoga mashhurdir. Biz ana Shu nday buyuk ajdodlarimiz nomini faxr bilan tilga olish huquqiga egamiz"¹, degan edilar.

Buyuk bobokalonimiz Ahmad al-Farg'oniy astronomiya, fizika, jug'-rofiya kabi aniq fanlar bo'yicha o'z davrida olamshumul ishlarni amalga oshirganlar. Yevropada al-Fraganus nomi bilan mashhur bo'lgan bobomiz Ispaniyadagi Kardova universitetining birinchi professori bo'lganlar. Bag'doddagi mashhur ilm markazi hisoblangan "Baytul-hikma"ning (Bilimlar uyi) boshligi Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy ham zamondoshi va yurtdoshi Axmad Farg'oniyni ilmiy ishlariga munosib baho beradi va Ahmad Farg'oniyni asarlari ko'pchilik olimlarning muhokamasida yaxshi baholangach, al-Xorazmiy o'zidan bir necha yosh kichik bo'lishiga qaramasdan uni "Baytul-hikma"ga xizmatga tavsiya etadi.

Yana bir vatandoshimiz — ilk uyg'onish davrining buyuk mutafakkirlaridan biri Abu Rayhon Beruniy ham ilmning barcha sohalarida ulkan kashfiyotlar qilgan yirik tafakkur sohibi bo'lgan.

Beruniyning 160 dan ortiq nodir asari mavjud bo'lib, allomaning qiziqmagan, olamShu mul kashfiyotlar qilmagan sohasi yo'q hisobi. Asarlarining 70 tasi astronomiya, 20 tasi matematika, 12 tasi geometriya va geodiziya, 4 tasi kartografiya, 10 tasi ob-havoni bilish masalalari, 3 tasi mineralogiya, 1 tasi fizika, 1 tasi doriShu noslik, 15 tasi tarix va etnografiya, 4 tasi falsafa va 18 tasi adabiyotga oid bo'lgan.

Beruniy yozib qoldirgan va bizgacha yetib kelgan asarlarini eslaylik. Ul zoti karam tabiat hodisalarini izohlab bergan allomadir. Uning bilim doirasi nihoyatda keng bo'lib, o'z asarlarida dunyoning cheksizligi, qit'alar va okeanlar o'zgarib turishi, ya'ni suv bir bosib, bir ko'tarilib, davr o'tishi bilan cho'lga aylanishi hodisalarini ilmiy asoslab bergan.

¹ Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat –engilmas kuch" – T.: 2008 yil

Beruniy Sharq olimlari orasida birinchi bo'lib, Yerning shar shaklida ekanligini isbotladi va Yer Quyosh atrofida aylanadi, degan to'g'ri fikrga keldi. U yer shari o'lchamini aniqlab, uni 5 metr keladigan globus yasadi va dunyo xaritasini chizdi. Dunyoning qayerida qanday boyliklar mavjudligini, dengiz suvining har kuni ikki marta qalqib-qaytib turishi, Oy va Quyosh tutilishlarining sababini soddagina qilib tushuntirib berdi. Amudaryo qaysi vaqtda toshib, qachon sayozlashib qolishi jadvalini tuzdi. Darhaqiqat, u qomusiy bilim egasi edi. Uning yirik asarlari XI asrda yozilgan bo'lib, o'sha davr uchun tamomila yangilik hisoblangan. O'z zamonasining zukko olimlaridan sanalgan, Samarqand observatoriyasini bunyod etgan ulug' bobomiz Mirzo Ulug'bek ham Beruniy asarlaridan foydalanganligi tarixdan ma'lum.

Ulug' bobokalonimiz — o'z zamonasining buyuk qomusiy olimlaridan biri Abu Ali ibn Sino ham osmon jismlari va tabiat hodisalarini o'rganib, talay kashfiyotlar qilgan. U yulduzlar harakatini, turli moddalarning tarkibi va tuzilishini o'rganish barobarida inson muhofazasi va salomatligini ta'minlashdek ezgu ishlarga ham munosib hissa qo'shgan. Tibbiyotni rivojlantirish borasida umrining oxirgi daqiqasigacha kurash olib bordi. Ibn Sino ungacha hech kim bilmagan ko'pgina kasalliklarni batafsil ta'riflab berdi. XI asrdayoq mikroblar yuqumli kasalliklarni keltirib chiqaruvchi xususiyatga ega, degan g'oyani ilgari surdi va atrofga tarqalib, xavf solishi mumkin bo'lgan epidemiya haqida insoniyatni o'sha davrlardayoq ogoh etdi. "Kitob ash-shifo" asarida zilzilaning sabab va oqibatlari xususida ham qimmatli fikrlarini bayon etgan.

Ibn Sino o'zining umri va hayotiy faoliyati misolida inson aql-zakovatining imkoniyatlari naqadar ulkanligini, tabiat sirlarini anglab yetishga qodirligini isbotladi. Avitsenna nomi bilan hayotning o'zgaruvchan bilimlari kuchini butun dunyoga namoyish qildi.

O'rta asrning mashhur qomusiy bilim sohiblari — Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino va keyinroq Zahiriddin Muhammad Boburlar o'z asarlarida zilzilalarning sabab va oqibatlari haqida qimmatli fikrlar bildirishgan. Ular zilzilalar hamma joyda emas, ayrim joylarda namoyon bo'lishi hamda vaqti yil

fasllariga, Quyosh va Oy fazalariga bog'liqligi haqida yozishgan. Ayniqsa, "Boburnoma"da zilzila kuchi yer ustida qanday tarqalishi haqida qimmatli fikrlar keltirilgan. Bu asarlar zilzila tabiati haqidagi birinchi va tug'ri qadamlar edi, -deydi seysmolog olim, akademik Qahhorboy Abdullabekov.

Ba'zi manbalarga tayangan holda yuqorida nomlari keltirilgan buyuk ajdodlarimiz hayotlaridan inson, tabiat va favqulodda vaziyatlarga oid bo'lgan kichik bir lavhalarni keltirdik xolos. Bu sohada ulkan tadqiqotlar olib borgan yana qancha olimlarimiz borligini unutmasligimiz, qolaversa, ularning ilmiy kashfiyotlaridan unumli foydalanishimiz shu kunning muhim talablaridan biridir.¹

Tarixiy manbalarda aks etgan tabiat hodisalari bundan tashqari, mamlakatimiz va mintaqa davlatlari hududlarida yuz bergan favqulodda vaziyatlarning bir turi-yer silkinishi hamda ularning dahshatli oqibatlar haqida tarixiy manbalarda ayrim ma'lumotlar uchraydi. Masalan, mamlakatimiz hududida yer qimirlashi haqidagi dastlabki ma'lumotni Abu Said Gardiziyning "Kitob Zaynal Axbor" asarida uchratish mumkin. Unda: "224 (838-839) yilda Farg'onada kuchli zilzila natijasida ko'plab imoratlar vayronaga aylandi", deb yozilgan. Xurosonlik mashhur tarixchi Juvayniyning "Jahongir Chingizxon tarixi" asarida 1028 yil Xorazm viloyatida yuz bergan kuchli zilzila natijasida ko'plab imoratlar buzilib, unda 2000 kishi halokatga uchraganligi, hatto bu yer silkinishining kuchli bo'lganligi sababli Urganchning bir qismi Amudaryoga cho'kib, shahar vayronaga aylanganligi haqida ma'lumot mavjud.²

Xuroson va Movaraunnahrda yuz bergan kuchli zilzilalar haqida Zahiriddin Muhammad Bobur ham o'zining "Boburnoma" asarida yozib qoldirgan. Hatto Zahiriddin Muhammad Boburning otasi Umarshayx Mirzoning o'zi ham ana Shu nday tabiiy ofatlarning bir turi –yer ko'chishi, ya'ni Axbor qal'asining o'pirilishi oqibatida halok bo'lgan.

Muhammad Tohir Ibn Abdul Qosimning "Ajoyibot Taboqat" asarida 1620 yilda Axbor shahrida yuz bergan kuchli yer qimirlashi haqida yoziladi. Unda:

¹ A. Suyunzoda "Inson, tabiat va tabiiy ofatlar". "Muhofaza+" jurnali №2/ 2013 yil. 12, 27 betlar.

² Ibrohimov R. "Solnomalar yilnomasi". "Fuqaro muhofazasi" jurnali, 2002 y. №1. 28 bet

“...Shu nday kuchli yer qimirladiki, hatto daryoning suvlari qirg'oqlarga urilib(Sirdaryo), atrofdagi butun dashtni bosib ketdi. Qirg'oqqa chiqarib tashlangan baliqlar o'zlarin har tomonga urib halok bo'ldi. Daraxtlar qulay boshladi. Kuchli tebranish uylarni bir zumda tep-tekis qildi va ko'plab odamlar ana Shu vayronalar tagida qolib ketdi. Bu voqea olti oygacha davom etib, kuchli tebranishlar soni 70 tagacha yetdi. Shunisi qiziqki, eng dahshatli tebranish Axsi qal'asida bo'ldi, undan bir farsang (8 km) masofada zilzila kuchi deyarli sezilmadi.”¹

Tarixda “Axsi zilzilasi” nomini olgan bu turdagi tabiiy ofat kuchi haqida mutaxassilar MSHK shkalasi bo'yicha 9 ball va uning tebranish o'chog'i yer yuzasi qismida bo'lgan, deb xulosa qilingan.

Muhammad Yoqub ibn Muhammad Danialbiy “Gulshan al- Mulk” quyozma asarida 1797-1798 yilda yuz bergan yer silkinishi haqida Samarqand yaqinidagi Urgut qo'rg'onidagi binolar shunchalik vayronaga aylanganki, “...hatto yarim sir (1600gr.) keladigan bir bo'lak devor kesagini topish amri mahol” deb, yozadi.

Respublikamiz hududida yuz bergan kuchli zilzila haqida N.V.Xanikovning 1843 yilda nashr qilingan “Buxoro xonligi to'g'risida ”gi asarida 1821-1822 yillarda Buxoroda yuz bergan kuchli zilzila haqida ma'lumot uchraydi. Hatto bu yer tebranishining kuchi Samarqandga yetib borganligi va Mirzo Ulug'bek madrasasi minorasini vayron qilganligi haqida aytib o'tilgan.² Bunday dahshatli voqelik haqida Muhammad Hakimxon To'raning “Muntabax at-tavorix” qulyozma asarida ham uchraydi. Unda 1822-1823 yillarda Farg'onada bo'lgan kuchli zilzila haqida Shu nday yozib qoldirilgan: “bunday dahshatni asrlar bo'yi hech kim ko'rmagan va sezmagan. Imoratlar buzilib , ko'p kishilar xarobalar tagida qolib halok bo'ldi. Aholi qamishlardan kapalar yasab yashadi, tog'da esa ko'p oilalarni yer yutdi. Yer yorilib, u yerdan kuchli tovush bilan qop-qora bug' otilib chiqdi. Ariqlardagi suv bo'lsa, qonqadek qaynab, har tomonga toshib ketdi.

¹ Ibrohimov R. “Solnomalar yilnomasi”.”Fuqaro muhofazasi”jurnali, 2002 y.№1. 28 bet

² Ibrohimov R. “Solnomalar yilnomasi”.”Fuqaro muhofazasi”jurnali, 2002 y.№1. 28 bet

Tebranish va silkinishlar 6 oy davomida bir necha kunlab qaytalab, takrorlanib turdi.”¹

Tarixda “Andijon voqeasi” nomi bilan kirgan yer silkinishi Respublikamiz hududida yuz bergan eng katta va kuchli tabiiy ofat hisoblanadi. U 1902 yil 3 dekabrda sodir bo’lgan va Andijon shahrini vayronaga aylantirgan. Hatto temir yul ustida turgan vagonlarni ag’darib yuborgan. Temir yo’llar egilib, joylaridan qo’zg’olib ketgan. Adirlardagi yerlar yorilib, u yerdan neft, gaz va sizob suvlar bir qancha vaqt otilib chiqib turgan. Zilzila natijasida 50 ming kishi yashaydigan Andijon shahri bir daqiqada vayronaga aylangan. 4652 kishi halok bo’lgan, 7000 ga yaqin qoramol nobud bo’lgan.

Bu voqeani boshidan kechirgan shoir Adoiy uni shunday tasvirlaydi:

Tebranib ko’p yer , ko’ngilga qo’ydi yuzin dog’lar,
Qolmadi anvoyi, ayvon roi ila ravoqlar.
Loaqal qolmadi imorat tarixidan o’choqlar,
Sochib boshiga nadomatdan hamma tuprog’lar.
Olomon yorab na bu, na zamon bo’ldi darig’!

Adoiy tomonidan qoldirilgan ma’lumotlarga asoslanib mutaxassislar Andijon zilzilasi kuchini MSHK shkalasi bo’yicha 9 balldan iborat bo’lgan, deb baholanadi.

Mualliflar G’. Hotamov va Q.A’zamovlar XIX asrning ikkinchi yarmidan XX asrning 60-yillarigacha bo’lgan davrda Toshkentda “5 marta juda kuchli-tahlikali yer silkinishi sodir bo’lgan, 300 marta yer chayqalishi va silkinishi kuzatilgan”ligi haqida yozishib, ular 1866 yilda, 1868 yilda 1924 yilda, 1946 yilda hamda 1966 yilda yuz bergan zilzilalar haqida to’xtalib o’tishadi.²

O’zbekiston bilan chegaradosh bo’lgan qo’shni mamlakatlarda yuz bergan yer silkinishlari ham mintaqamizning seysmik faol hududda joylashganligidan dalolat beradi. Masalan, 1887 yil 28 mayida erta tong soat 4 dan 35 daqiqa o’tganda Verniy (hozirgi Olmaota) da MTTTK shkalasi bo’yicha 10

¹ O’sha manbada, 28-bet.

² Hotamov G’.A’zamov Q. “Mustaqillik maydoni”, O’zbekiston yozuvchilar uyushasi Adabiyot jamg’armasi nashriyoti. T. 2008. 19 bet

ballga teng bo'lgan kuchli yer silkinishi sodir bo'ldi. Shahar vayronaga aylandi. 1911 yilning 4 yanvarida yuz bergan Kebinagi MSHK shkalasi bo'yicha 10 balli zilzila yer qiyofasiga o'zgartirishlar kiritdi. Bu dahshatni o'z boshidan kechirgan bir odam shunday yozadi: "Bu allaqanday bahaybat muzlarning, ustma-ust, uyum-uyum bo'lib suzib yurganiga o'xshar, guyo allaqanday qudratli qo'llar uy-joylarimizni ushlab oldi-yu, dorisi bor idishni chayqatganday silkitdi." Bu yer silkinishi 1 mln.km². maydonga tarqaldi.¹

Yuqorida qayd etilgan tarixchilar tomonidan yozib qoldirilgin asarlarda yer silkinishining oqibatlarini xususida bayon etilgan bo'lsada, lekin uning sabablari haqida ilmiy xulosalar qilinmagan. XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab zilzilalar sababi keng ilmiy asosda o'rganila boshlandi. Markaziy Osiyo mintaqasida seysmik faol zonada joylashgan, degan ilmiy xulosaga 1966 yilda Toshkent shahrida yuz bergan zilziladan so'ngina kelindi.

Biroq, tabiiy ofatlar ichida eng dahshatli hodisa, deb hisoblangan yer silkinishlari haqida qadimdan turli, bir oz yaqin, lekin to'la asoslanmagan ilmiy qarashlar shakllangan. Bu qarashlar uzoq vaqt o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Masalan, Pifagor², Strabon, Demokrit, Aristotel³, buyuk allomalar Abu Rayhon Beruniy va Abu Ali ibn Sinolar tomonidan tabiatning bunday hodisalarining yuz berish sabablari haqida ilmiy yondoshishiga harakatlar qilindi.

Aristotel, Abu Rayhon Beruniy va Abu Ali ibn Sinolar zilzilalarning asosiy sababchisi vulqon harakatlari bo'lsa kerak, degan fikrga kelishdi. Bu fikr XVIII-XIX asrlargacha hukmronlik qildi.

Ba'zi olimlar zilzilalar, quyosh, oy va boshqa planetalarning ta'siri ostida ro'y beradi, deb kosmik ta'limotni ilgari surishdi. Jumladan, XVII asrda G'arb mamlakatlarida keng tarqalgan "Mo'jizalar tarixi" to'plamida ham tabiat hodisalarining insoniyatga ta'siri diniy mafkuraviy tushuntirilgan. Unda: "Kometa baxtsiz hodisalarining aniq belgisi bo'lib xizmat qiladi. Har doim kishilar Oy tutilishini, komitani ko'rishgach, Yerning qimirlashi, suvning qonga aylanishi ...

¹ Ibrohimov R. "Solnomalar yilnomasi". "Fuqaro muhofazasi" jurnali, 2002 y. №1. 30 bet

² O'sha manbada, 30-bet.

³ O'zR FVV, "Seysmik jarayonlar", 2007 yil, 18-19 betlar.

xullas bir soʻz bilan aytganda, insoniyatni baxtsizlik oʻz iskanjasiga oladi...” deyilgan.¹

Faqat, 1872 yil Janubiy Italiyada koʻplab kuzatishlar olib borgan Eduard Zyus yer sikinishlari tektonik jarayonlarga bogʻliqligini birinchi mart ilmiy asosda tushuntirdi.²

Mintaqada, Shu ningdek Oʻzbekiston hududida istiqomat qilib kelgan xalqlar tarixida favqulodda vaziyatlarning tabiiy tusiga oid hodisalar muayyan urf-odatlar va qadryatlarning shakllanishida katta oʻrin egallagan. Jumladan xalqimiz orasida aytilib kelingan “Sinch uyim, tinch uyim”, “Suvga tupurma gunoh boʻladi” degan kabi maqollar va daʼvat etuvchi pand-nasihatlari ham tabiat hodisalarining natijasida shakllangan.³

Xalqimiz yer silkinishi kabi tabiat hodisasi kabi tomonidan solinayotgan xavfdan saqlanish uchun sinch uylardan qoydalanishgan. Chunki, sinch uylarning qurilishida ustalar imorat mustahkamligini oshirish va yer silkinishi paytida qulab ketmaslik uchun yogʻoch va taxtalarni bir –biriga uyib kirgizishgan. Bu esa yuz berishi mumkin boʻlgan har ikki turdagi: gorizontali (yonlama) hamda vertikal (tik) koʻrinishdagi yuz beradigan zilzilalarga bardosh bergan. Albatta, yogʻochdan uy qurish ustalaridan chuqur bilim, mahorat va oʻz ishlariga astoyidil yondashishni talab etgan. Imoratlar qurishda faqat zilzila kabi tabiat hodisalaridan muhofazalanish choralarigina emas, balki mavjud boʻlgan gazandalar: ilon, chayon, sichqon va kalamushlardan, shuningdek turli zaharli oʻrgimchaklardan himoyalaniş tadbirlari ham qullanilgan. Buning uchun tom usti, uy shiftini quruq qamish bilan yopishgan. Bu birinchidan imoratning yuqori qismida yengillik hosil qilib, uyniing zilzilabardoshligini oshirsa, ikkinchidan yuqorida qayd etilgan gazandalarni uydan panoh topishiga yoʻl qoʻymagan. Shuning uchun ham, xalqimiz orasida “qamishli uyda ilon boʻlmaydi”, degan ibora yuradi.

Qadimdan bu kabi tabiat hodisasidan muhofazalanish maqsadida uylarni sinchli qilib qurish uysozlik madaniyatini yuksalishiga, meʼiorchilik sanʼatini

¹ Muhamadazimov. M. “Astronomiya”, T. “Oʻqituvchi”, 2003 y. 159 bet

² OʻzR FVV, “Seysmik jarayonlar”, 2007 yil, 18-19 betlar.

³ Maʼrifat gazetasi. 2010 yil avgust.

rivojiga ham o'ziga xos ma'noda ta'sir etgan, deyish mumkin. Shu bois, "qo'sh sinchli", "bir sinchli", "aralash sinchli" uylar turi paydo bo'lgan. Albatta sinchli uylarning qurilishi yog'och mahsulotlariga nisbatan ehtiyojni oshirgan. Bu talab xalqimiz orasida eng ezgu odatlardan yana birini shakllantirgan. Oilada to'ng'ich farzand tug'ilsa, unga atab 25 ta terak niholi ekilgan. Bola balog'atga yetkunga qadar bu nihollar ham voyaga yetgan va tayyor qurilish ashyosiga aylangan.

Shakllangan bu odatning ikkinchi ijobiy tomoni teraklar ortiqcha parvarish talab qilmaydigan daraxtlar bo'lgani uchun, ko'proq suv bo'ylarida ekilgan. Teraklar yumshoq yerlarga va ariq bo'ylariga ekilgani sababli ariqlarni va yerlarni surilishlardan saqlagan. Ya'ni yer degradatsiyasining oldini olgan. Uning yon tomonlariga o'sib chiqayotgan novdalari kesib borilsa, u Shu ncha, baland va to'g'ri o'sadigan daraxt hisoblanadi. Uch va to'rt xonali imoratni qurilish materiallari bilan to'la ta'minlay olgan. Uchinchidan, terak xonani tozalab beradi, chunki u kislorod ajratadi. To'rtinchidan, mutaxassilarning ta'kidlashicha terak barglarining yengil shamolda ohista shitirlashi kishini dam oldiradi va o'zidagi go'zallikni uzoq vaqt saqlab turadi. Birgina "Sinch uyim, tinch uyim" maqoli zamirida qanchalik hayotiy tajriba, ilmiylik va ulardan chiqarilgan axloqiy ma'no bor.

Mamlakatimiz hududida yuz berib turgan kuchli shamol ham imoratsozlik borasida o'ziga xos yondoshuvni talab etgan. Bunday kuchli shamol yo'lida joylashgan aholi manzilgohlarida uylar ayvonsiz va qoshsiz qilib qurilgan. uylar tomining tepa qismi devorlari bilan bog'lanib, bir butunlikni hosil qilgan. Tog' va tog' oldi hududlarida esa uylar qoshli va ayvonli qilib, ayvoni hamda derazalari quyosh tomonga, janubga qaratib qurilgan.

Bundan tashqari xalqimiz orasida qadimdan amal qilib kelgan sobiq sovet ittifoqi davrida unutilgan va mustaqillik sharofatib bilan yanada boyitib borilayotgan "Darvishona", "Yomg'ir yog'dirish", "Choy momo"¹ kabi ko'plab marosimlar ham tabiat hodisalari bilan bog'liqdir. Bu marosimlar tabiat hodisalarining oldini

¹ Ma'rifat gazetasi. 2010 yil avgust.

olishda muhim amaliy ahamiyat kasb etmasada, ular aholiga ma'naviy ruh bag'ishlab, odamlarni jipslashtirgan, ruhan tushkunlikka tushmaslikka undagan, ularni bir jamoa bo'lib shakllanishida o'ziga xos o'rin tutgan.¹

¹ Norboev. A, I. Xoliqov, M.Ishxo`jayeva "Tabiat hodisalarining insoniyat xayotida tutgan tarixiy o'rni". T. 2013 yil.

II–BOB: Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularga qarshi kurashishning ma'naviy-ma'rifiy omillari

2.1. Favqulodda vaziyatlarni oldini olishning ma'naviy-ma'rifiy omillari

Tabiatga bo'lgan munosabatda insondagi ma'naviy qarash, ma'naviy kamolot asosiy omil hisoblanadi.

Tabiat qo'ynida yashab kelayotgan insonning bugungi kunda taraqqiyot cho'qqisiga chiqishida tabiat va uning hodisalarining ham o'rni katta. Bugun yuz berayotgan turli ko'rinishdagi tabiiy ofatlar, yer silkinishlari, dovullar va shamollar, suv toshqinlari, havoning ifloslanishi va Ozon qatlamining yemirilishi yuz bermoqdaki bu esa insoniyatni haqli suratda tashvishga solmoqda. Odamzodning yagona yashash makoni Yer kurrasi, atrof muhit esa uning “o'tirgan shoxi”dir. Tabiat va uning in'omlari bor ekan, inson yashay oladi, baxtli hayot kechira oladi.

Ibtidoiy davrlarda insonlarning aynan tabiat hodisalari va kuchlari oldidagi ojizliklari ibtidoiy din shakllarini vujudga kelishiga sabab bo'lgan. Qadimgi xalqlar o'zlarining xudolarini tabiat hodisalari bo'lmish momaqaldiraq, oy, quyosh, suv, shamol, dengiz, vulqon, sahro va boshqa Shu kabi nomlar bilan atab kelishgan. Albatta bu xudolar har bir xalqning yashayotgan tabiatiga bog'liq bo'lgan va Shu tabiat hodisalariga sig'inishgan. Tabiiy ofatlar insoniyat boshiga juda ko'p moddiy va ma'naviy zararlar olib kelgan. Qadimgi dunyoning yetti mo'jizalarida to'rttasi mana shu tabiiy ofatlar yoki inson qo'li bilan sodir etilgan tabiiy ofatlar natijasida yo'q bo'lib ketgani barchamizga yaxshi ma'lum. Tabiiy ofatlar va ularni oldini olish haqidagi qarashlar Sharq xalqlari, jumladan, O'rta Osiyo xalqlari hayotida ham uchraydi. Zardo'shtiylik ta'limoti va uning muqaddas kitobi “Avesto” da tabiat unsurlar jumladan, suv, havo, olov, tuproq muqaddas sanalgan. Tabiat ne'matlariga zarar yetkazish yoki ularni payhon qilish jinoyat sifatida qabul qilingan va ularga jazolar tayinlangan.

Bunga qadimdan ota-bobolarimiz juda katta e'tibor berib kelishgan. Jumladan, zardo'shtiylik dinida, shuningdek islom dinida ham tabiatga, insonga uni qurshab turgan atrof-muhitga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishgan.

Bunga o'tmishdan ko'plab dalillar keltirish mumkin. Zero, vatandoshimiz shayx Najmiddin Kubro o'zining islom olamida mashhur bo'lgan “ Ofaq va anfus “ nazariyasida insondagi o'zgarishlar ulug' olam bilan bog'liqdir , deb ta'kidlagan.” Ofaq va anfus” degani, yozadi Najmiddin Kubro , olami sag'ir(inson) va olami kabir(tabiat) orasidagi munosabatlardir. Olami kabirda bo'lgan har qanday o'zgarish albatta olami sag'irga o'z ta'sirini ko'rsatadi.¹

Insoniyat o'z tarixida qadimdan turli ko'rinishdagi favqulodda vaziyatlarning oldini olish ishlarini olib borgan. Tabiat hodisalari uni o'ziga qarshi kurashga chorlash bilan birga, uni o'ylashga, olam sirlarini bilishga majbur etganu shu bilan birga aynan favqulodda vaziyatlar kishilik madaniyatini shakllanishiga o'ziga xos turtki berdi.

Favqulodda vaziyatlarga oid hodisalarning oldini olish va ularga qarshi kurash tarixini shartli ravishda to'rt bosqichga, ya'ni qo'yidagi tarixiy davrlarga bo'lib o'rganish mumkin. Ular:

- birinchi tarixiy bosqich, insoniyat paydo bo'lgandan tortib, qadimgi davlatlarning paydo bo'lishigacha bo'lgan davrni, ya'ni turli tabiiy ofatlar yuz berishini oldindan bilish hamda ularning oldini olish uchun qilingan dastlabki primitiv harakatlar davrini o'z ichiga oladi;

- ikkinchi tarixiy bosqich, qadimgi davlatlar paydo bo'lgan davrdan tortib, XX asrning o'rtalarigacha bo'lgan davrni, bir oz tartibga solingan tabiat hodisalarining oldini olishga qaratilgan o'ziga xos tizimlarni yaratishga bo'lgan urinishlarni o'z ichiga oladi;

- uchinchi tarixiy bosqich, XX asrning o'rtalaridan to 1991 yilgacha bo'lgan davrni, ya'ni dunyo xaritasida yuz bergan kuchli siyosiy o'zgarishlar hamda mamlakatlar o'rtasidagi munosabatlarning yumshay boshlashigacha bo'lgan davrni, ya'ni har tomonlama mukammal, ilmiy asosda tashkil etilgan davlat organlari va tizimlarini yaratish hamda hayotga tatbiq etish ishlari boshlangan davrni o'z ichiga oladi.

¹E. Xoliqov ,B. Siddiqov, M.Rustamov, A.Mirzaev. “Qalban uyg'onish davri” , Toshkent-“EXSTRAMUM PRESS”-2011 yil .139 bet.

- to'rtinchi tarixiy bosqich, o'tgan asrning 90-yillaridan to Shu bugungi kungacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Bu davrda dunyo mamlakatlari o'rtasidagi qurollanish poygasi barham topdi. Sotsialistik tuzum inqirozga uch tarixiy davrlar o'zini quyidagi xususiyatlari bilan ajralib turadi. radi, yangi mustaqil davlatlar paydo bo'ldi. Tabiiy, texnogen va ekologik tUSDagi favqulodda vaziyatlar xavfi insoniyat tomonidan chuqur anglab yetildi. Xalqaro nufuzli tashkilotlar, harbiy bloklar o'z faoliyat yo'nalishini o'zgartira boshladi. Davlatlar o'rtasidagi munosabatlarda favqulodda vaziyatlarni oldini olish va oqibatlarini kamaytirish kabi masalalar siyosiy sahnaga chiqa boshladi.

Tabiat hodisalariga qarshi kurash va uning oldini olish uchun insoniyat boshidan kechirgan tarixiy davrlar o'zini quyidagi xususiyatlari bilan ajralib turadi.

Ikkinchi tarixiy davr. Bu davrda tabiiy tUSDagi favqulodda vaziyatlarning turli ko'rinishlarining oldini olish va ular oqibatlarini bartaraf etish maqsadida qator tadbirlar amalga oshirilgan. Biroq, mutaxassislar tomonidan bunday tadbirlarga baho berishda bir tomonlama yondoshilgan va xulosa qilingan. Jumladan, qazilgan kanallar , sug'orish inshootlarining barpo etilishi, har yili ariq va zovurlarning , kanal va boshqa suv inshootlarining tozalanishi mohiyati faqatgina hosildorlikni oshirish, aholi iste'moligi qondirishga yo'naltirilgan, deb talqin qilingan. Lekin bu turli yuqumli kasalliklarning tarqalishining oldini olishga, bahorgi va kuzgi suv toshqinlarini davrini talofatsiz o'tkazish, aholi yashayotgan joylarni daraxtzorlarga aylantirib, atmosferaning tozaligini ta'minlashdan ham iborat bo'lgan. Masalan, "Misr eng birinchi gidrotexnik inshootlar vatani"¹ deb, aytishadi. Bu yerda taxminan er. Av. 2950 va 2750 yillar oralig'ida qurilgyn to'g'onlarning qoldiqlari hozirga qadar saqlanib qolgan.²

O'rta podsholik davrida hukmronlik qilgan Amenxotep III davridagi yozuvlardan birida Nil hozirgi vaziyatidan 7 metr balandlieda bo'lganligi haqida ma'lumotlar uchraydi. Bu davra Misrning Fayum vohasida olib borilgan

¹ Ilyosova Z.F. "Xayot xavfsizligi asoslari", T. "Moliya" 2001 y. 170 bet

² O'sha manbada 171 bet

irrigatsiya ishlari Nil daryosining toshqin davridagi suvining bir qismini Gerakleopol dombasiga qarab burganligidan, bu bilan esa o'sha davrda toshqin suvlarini jilovlash hamda ular keltirib chiqarish mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlarning oldini olish uchun o'ziga xos suv inshootlari barpo etilganligidan dalolat beradi. XII sulola podsholari zamonida Nil daryosidan Merido ko'liga oqib kirishi va ko'ldan chiqib ketishini tartibga solib turadigan katta inshoot qurishga kirishgan. Bu inshootlarning qurilishi esa Fayum vohasidagi botqoqliklarni quritib dehqonchilik ishlarini rivojlanishiga turtki bo'ldi. Ikkinchi tomondan, Nil toshqinidan minglab aholining hayoti saqlab qolinga. Iqtisodiy zararlar miqdori kamaytirilgan.

Qadimgi Mesopatamiya davlati tarixida ham gidrotexnik inshootlar barpo etilgan va ular nafaqat mamlakat iqtisodiyotiga, balki insonlarning hayotini turli tabiiy ofatlardan saqlab qolish uchun ham katta xizmat qilgan. Masalan, er.av.1792-1750 yillarda hukmronlik qilgan Xammurabi davrida Nar Xammurabi kanali qazilgan. Sug'orish tarmoqlaridan foydalanish, tomoqalarni kengaytirish tartibli asosda tashkil etilgan. Sug'orish tarmoqlari davlat tomonidan nazorat olib borilgan.

Xammurabi davrida qabul qilingan "Xammurabi qonunlari" mamlakatdagi ijtimoiy munosabatlarni ham ma'lum ma'noda tartibga solgan. Unda mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini yaxshilash, mamlakatda kuchli tartib-intizom o'rnatish, o'rmonzorlarni kengaytirish, ularni kesib ketishning oldini olish, suvdan foydalanish kabi ko'plab sohalar qamrab olingan. Jumladan, podsho o'rmonzorlarni qo'riqlash yuzasidan bir qancha tadbirlar ko'rgan. O'rmonzorlar alohida-alohida uchastkalarga bo'lingan. Bu uchastkalar o'rmon xo'jaligining bosh mudiriga bo'ysunuvchi maxsus "uchastkalar mudirlari" qaramog'ida bo'lgan. Ular daraxtlarni saqlash uchun javobgar hisoblangan. Uchastka mudirlari o'z mansabidan foydalanib, biror jinoyat qilsalar qatl etilgan.

Sug'orish tizimi tarmoqlarini tozalash, sozlash, buzilib ketishiga yo'l qo'ymaslik vazifalari o'sha joyda yashayotgan aholi zimmasiga yuklatilgan.

Bu davrda favqulodda vaziyatlarning oldini olish maqsadida qator tadbirlar ko'rganligini Yevropa mamlakatlari misolida ham ko'rish mumkin. Yevropa mamlakatlarida sug'orish inshootlariga nisbatan ehtiyoj deyarli bo'lmagan. Chunki, yog'ingarchilikning ko'p bo'lishi, tabiatning mo'tadilligi bunga sabab bo'lgan. Shu bois, Yevropa mamlakatlariga xos bo'lgan, tabiatni asrash, uni quriqlash maqsadida podsholik qoshida turli nomdagi boshqarma yoki davlat organlari mavjud bo'lgan. Masalan, XIV asrda Fransiya "Suvlar va o'rmonlar" maxsus boshqarmasi faoliyat olib borgan. Qadimgi Vilgelm podsholigida yovvoyi cho'chqa, kiyik va quyonlarni o'ldirganligi uchun kishilar o'lim jazosiga mahkum etilgan.¹

Prussiya, Gollandiya va Fransiya dengiz bo'yidagi qumlarning ko'chishini oldini olish maqsadida ma'lum tadbirlar belgilangan va ularga qonuniy tus berilgan. Daniya Xristian III davrida tabiatni muhofazalash borasida qarorlar chiqarilgan.²

Bunday vaziyatlarni ayrim olimlar, jumladan J. Xolmo'minov : "Ammo bu qonunlar umumiy atrof-muhitni emas, balki feodal mulkini saqlab qolish va muhofaza qilishga qaratilgan," deb bir tomonlama xulosa qiladi. Bir tomonlama olib qaranganda tarixiy nuqtai nazardan to'g'ri xulosa, chunki, bu davrda atrof-muhitning ifloslanishi natijasida kelib chiqadigan oqibatlar, tabiiy ofatlarning yuz berish sabablari kabi vaziyatlar haqida chuqur ilmiy asoslangan, tizimli bilimlar majmui yo'q edi. Biroq, ularning chiqargan farmonlari ma'lum ma'noda tabiatni asrash, undagi mavjud rang-baranglikni saqlab qolishga xizmat qilgan. Shu o'rinda aytish mumkinki, jamiyat va tabiatning o'zaro bog'liqligi barcha borliq va hodisalar o'rtasidagi munosabatlardan iborat. Bu bog'liqlikni buzish ko'pincha yomon oqibatlarga olib keladi. Masalan, Qadimgi Misr, Gretsiya, Kichik Osiyo va boshqa joylarda odamlar ekin ekiladigan yerlarni kengaytirish maqsadida daraxtzorlarni yo'q qilishgan. Bora-bora bu maskanlar Sahroyi Kabirga aylanib

¹ Xolmo'minov J. "Xavf bilan yonma-yon", "Muhofaza" jurnali .2005 y. №1. 30 bet.

² O'sha manbada 31 bet

ketgan. Buning ustiga, daraxtzorlar bilan birga suv yig'iladigan manbalar ham yo'q qilib yuborilgan.¹

Markaziy Osiy xalqlari tarixida ham gidrotexnik inshootlarning barpo etilishi, ularning kishilar ehtiyojini qondirish uchun bo'lgan ahamiyati qator adabiyotlarda kengyoritib berilgan. Masalan, akademik Ya. G'ulomov "Qadimgi madaniyat izlaridan" nomli risolasida dastlabki dehqonchilikning shakllanishida suv toshqini yuz bergan yerlar muhim o'rin egallaganligi, Shu ningdek, suv toshqinlarini jilovlashga bo'lgan harakatlar kanallar qurish san'atini vujudga keltirganligini qayd etib o'tgan.

Uchinchi bosqich. XX asr o'rtalaridan 1991 yilgacha bo'lgan davr. Bu bosqichning dastlabki paytlarida favqulodda vaziyatlar davlatlarga iqtisodiy jihatdan ta'sir etgan bo'lsa, keyingi davrlarda ijtimoiy-siyosiy xarakterga ega bo'la boshladi. Ya'ni davlatlar favqulodda vaziyatlardan himoyalalanish uchun boshqa davlatlar bilan kelishu vlarsiz uning oldini olish, oqibatlarini kamaytirish mumkin bo'lmay qolganini anglab yetdi. Chunki, XX asrgacha bo'lgan davrda favqulodda vaziyatlar ko'proq lokal, mahalliy xarakterga ega bo'lgan bo'lsa, bu davrga kelib, u ko'proq transchegaraviy xarakterga ega bo'la boshladi. Favqulodda vaziyatlarning yuz berishi ko'paydi.

Favqulodda vaziyatlarning ko'payishiga quydagi iqtisodiy va siyosiy omillar kuchli ta'sir etdi. Bular:

- o'sib kelayotgan inson ehtiyoji, orzu-havasini qondirish maqsadida olib borilgan faoliyatlar ;
- davlatlar o'rtasida yuz bergan o'zaro siyosiy, iqtisodiy sohalardagi raqobatlarida g'alaba qozonishga bo'lgan harakatlar;
- turli ijtimoiy tuzumlaning iqtisodiy, siyosiy va mafkuraviy jihatdan gegimonlik qilishga bo'lgan urinishlari.

Oqibatda tabiat va uning ne'matlaridan foydalanish, uni o'zlashtirish chuqur va har tomonlama ilmiy asoslanmagan holda olib borildi. Inson manfaatlari uchun yaratilgan yangi texnika va texnologiyalar shu sohalarga burib yuborildi.

¹ Yo'ldoshev H.S, Avazova Sh.M."Ekologiya va tabiaini muhofaza qilish asoslari". T. "Mehnat"- 2003 y. 137 bet.

Bu esa insoniyatni yo'q qilishga qaratilgan turli xildagi kimyoviy, biologik, yadroviy, nurli qurollar kabi ommaviy qirg'in qurollari paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Bu qurollarni ishlab chiqarish, sinab ko'rish, saqlash va tashish jarayonlarida yo'l qo'yilgan xatolar insoniyatga og'ir oqibatlar olib kelishi to'la anglangan holda uni ko'paytirishga, son jihatidan ustun bo'lishga harakat qilindi.

Bu davrdagi o'ziga xos xususiyatlardan yana biri endigina rivojlanib kelayotgan jahon malakatlarinio'z ta'siriga olish uchun har ikki tuzum iqtisodiy omillardan ko'proq foydalanishga harakat qilganligidan iborat bo'ldi. Natijada juda katta yerlar o'zlashtirildi, bu yer, havo va suv tarkibining yomonlashuviga olib keldi.

Bunday xarakterlar turli tabiiy, texnogen va ekologik tusdagi favqulodda vaziyatlarning ko'payishiga sabab bo'ldi. Oqibatda kimyoviy xavfli, energitika va kommunal tizimdagi, gidrotexnik, radioaktiv, yong'in portlash xavfi majdud ob'ektlardagi, Shu ningdek temir yo'l, gaz, neft mahsulotlari ishlab chiqarish va ularni tashishga aloqador avariylar, halokatlar bilan birga yer osti foydali qazilmalarini qazib olishga oid yer cho'kislari, yer sathining sanoat tufayli kelib chiqqan toksikantlar bilan ifloslanishi, atmosfera tarkibining o'zgarishi, yer usti va osti suvlarining qishloq xo'jaligi va sanoat ishlab chiqarish oqova suvlari bilan gidrosferaning o'zgarishiga oid vaziyatlar paydo bo'ldi. Bu esa insoniyat hayotiga salbiy ta'sir eta boshladi. Masalan, BMT ma'lumotlariga qaraganda XX asrning 60 yillarida favqulodda vaziyatlardan aziyat chekkanlar yer yuzi aholisining 1,6 foizini tashkil etgan bo'lsa, 1980 yillarga kelib, ular soni 3,5 foizni tashkil etdi.¹

XX asrning oxirigi choragida dunyoda yuz bergan tabiiy ofatlardan 3,5 million kishi vafot etgan, 3 milliarddan ortiq kishi jabrlangan.² Birgina o'tgan asrning so'ngi yillarida turli ofatlar natijasida vafot etganlar soni 6 foizga o'sib borgan.³

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab 1990 yilgacha o'tgan bu tarixiy davrda BMT tasarrufida turli tusdagi favqulodda vaziyatlarga qarshi kurash olib

¹ Kol.avtor. "Zashita naseleniya i territoriy ot chrezvnachnix situatsiy", T. 2003 g. Str.9

² O'sha joyda

³ O'sha joyda

boruvchi loyihalar bilan birga turli aksiyalar o'tkazila boshlandi. Ana Shu nday aksiyalardan biri –xalqaro “Yer kuni” bo'lib, u ilk bor 1970 yilning 22-aprelida o'tkazildi. Ushbu aksiyaga dastlab jahon mamlakatlaridan 20 million kishi qatnashgan bo'lsa, 1990 yilga kelib 141 mamlakatdan 200 million kishi ishtirok etdi.¹

Favqulodda vaziyatlarning bu bosqichi davrining eng muhim xususiyati, davlatlar o'rtasida favqulodda vaziyatlarning oldini olish masalasi davlat organlari va tizimlarining shakllantirilishi hamda nufuzli xalqaro tashkilotlarning hamkorlikdagi ishlarni yanada rivojlantirishga bo'lgan e'tibori va amaliy harakatini yanada oshirishdan iborat bo'ldi, deb xulosa qilish mumkin.

To'rtinchi bosqich. Bu davrning muhim xususiyati sotsialistik tuzumning inqirozga uchrashi, mustaqil davlatlarning vujudga kelishi, yangi siyosiy tizimlarning shakllanishi bilan belgilanadi. Bu davrda:

- qurollanish poygasi tugadi, biroq insoniyatga qarshi qaratilgan turli ko'rinishdagi yadro bombamlari, ommaviy qirg'in qurollari, biologik vurollar bilan bog'liq, ularni saqlash, tashish, yo'q qilish kabi muammolar paydo bo'ldi;
- iqtisodiyotni intensiv rivojlantirishga bo'lgan harakatlar o'zlaridan og'ir meros qoldirdi;
- axborot almashinuvi kuchaydi;
- demokratik jarayonlar rivojlandi;
- turli sohalarda globallashtirish jarayoni yuz bera boshladi;
- insoniyatning o'zi yashab turgan muhit, ya'ni tabiatga bo'lgan munosabati keskin o'zgardi;
- turli tushdagi tabiiy, texnogen va ekologik tushdagi favqulodda vaziyatlar soni ortib borishi kuzatildi;
- davlatlar, siyosiy kuchlar, xalqaro tashkilotlar hamda milliy jamoat tashkilotlarining favqulodda vaziyatlarga qarshi kurash yo'nalishi faoliyat turining biriga aylana boshladi;

¹ O'zbekiston Respublikasi ilmiy tadqiqot va tibbiyot hujjatlari markaziy davlat arxivi, FYuZZZ, ro'y.1. ish 206, 15 bet.

- favqulodda vaziyatlarning oldini olish uchun davlatlarda maxsus davlat organlari shakllanishi bilan birga Shu soha bo'yicha xalqaro nufuzli tashkilotlar vujudga keldi;

- davlatlarda favqulodda vaziyatlar turlari bo'yicha maxsus tashkilotlar barpo etildi va ularning faoliyatiga qonuniy tus berildi.

Tabiatga bo'lgan munosabatda insondagi ma'naviy qarash, ma'naviy kamolot asosiy omil hisoblanadi. Holbuki, muqaddas dinimiz bo'lgan Islomning asosini poklik tashkil etadi. Islom dinining muqaddas kitobi hisoblangan Qur'oni Karimda ham tabiat hodisalari va ofatlari haqida juda ko'plab oyatlar mavjud. Qur'oni Karimning bir qator suralari: "Ra'd"-momaqaldiraq, "Duxon"-tutun, "Ahqof"-qumtepalar, "Zoriyot"- bulutlarni haydab yuruvchi shamollar, "Najm"-yulduz, "Qamar"-oy, "Falaq"-tong kabi tabiat hodisalar nomlanadi. Qur'oni Karim oyatlarida tabiat hodisalarining OLLOH tomonidan yaratilishi, tabiiy ofatlarning esa insoniyatga berilgan jazo ekanligi vahiy qilinadi. Dinimizdagi farz qilingan o'n beshta nafl nomozining to'rttasi(Istisqo, Kusuf, Xusuf, Xavf nomozlari)aynan tabiat hodisalari va ularning insonlarga zarar yetkazmasligi uchun o'qiladi.

Islom olamida "Qur'oni Karim"dan keyingi kitob, deb hisoblangan Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al Buxoriyning "Al-Jomi' as-sahih" kitobidagi hadislarda ham kuchli yomg'irlarning yuz berganligi va u juda katta talofatlar olib kelganligi aytib o'tilgan. Islom olamida har kuni besh mahal o'qiladigan nomozlardan tashqari har xil maqsadlar uchun ixtiyoriy ravishda o'qiladigan qo'shimcha o'n beshta nafl nomozlari mavjud bo'lib, Shu lardan to'rttasi tabiat hodisalari va ularning insonlarga zarar yetkazmasligi uchun o'qiolgan. Jumladan, Istisno namozi- Olloh Taolodan ekinlar, chorvalar uchun yomg'ir tilab o'qiladigan ikki rakatli nafl namozi bshlib, namozni o'qish uchun shahar musulmonlari jam bo'lib, sahroga chiqadilar. Yosh bolalarni, hayvonlarni va kambag'allarni ojizlik vaziyatida olib chiqadilar, faqirlarga sadaqa beradilar. Sahroga chiqqanlar tahoratli holda imomga qarab turadilar. Imom xaloyiqa va'z-nasihatlari qilib, qavm a'zolarini gunohlardan poklanish uchun tavba va istig'for aytishga taklif qiladi;

Kusuf namozi esa Quyosh tutilib, nuri xiralashib qolganda imom jamoat bilan masjidda o'qiladigan namozdir, Xusuf namozi Oy tutilib, nuri xiralashgan paytda o'qiladigan ikki rakatli nafl namozidir. Bu namozni har bir kishi o'z uyida yolg'iz o'qish buyuriladi; Xavf namozi –qattiq yoig'ir yog'ib, sel kelib, suv toshqini bshlganda yoki qattiq sovuq yoki yer silkinib zilzila bo'lganda yoki dushiandan ehtiyot bo'lish va Shu kabi xavfli voqealar sodir bo'lganda tashqari o'qiladigan ikki rakatli nafl namozidir. Namozni o'qib bo'lgach, tavba va iotig'for aytib, quydagicha duo qilinadi. “Yo rab, Shu voqeani zararidan saqlagin”.¹

Bundan tashqari xalq og'zaki ijodi namunalari, ajdodlarimizdan qolgan an'ana va marosimlar hamda qadriyatlarimizda ham tabiatga bo'lgan inson munosabati o'z aksini topgan. Jumladan, “Sust xotin”, “Choy momo”, “darveshona” marosimlarini keltirishimiz mumkin. Yuqorida keltirilgan manbalarda favqulodda vaziyatlarning oldini olish yoki ularga ta'sir ko'rsata olish, ularga qarshi kurashish haqidagi g'oyalar ilgari surilgan.

Bugungi kunda havo va Yerning nihoyatda ifloslanib borayotganligi, uning oldini olish, kelajak avlodga sof muhit yaratish lozimligi, siz bilan biz umr kechirayotgan hozirgi pallada muhim o'rin egallaydi. 1989 -yil BMT Bosh Assambleyasi 1990-yildan 2000-yilgacha bo'lgan davrni **“Xavfli tabiiy ofatlarning oldini olish va zararini kamaytirish xalqaro o'n yilligi” deb** e'lon qilinishi xalqaro jamoatchilik va mamlakatlar e'tiborini yanada oshirdi. Sessiya qarori bilan Jenevada ofatlar yuz berganda xalqaro yordam ko'rsatishni tashkil qilish uchun BMT kotibiyati tashkil etilishida xam ko'rishimiz mumkin.²

Kelgusida Yer yuzida hayot bo'lish yoki bo'lmasligi, avvalo, tabiat mavjud bo'lish yoki bo'lmasligiga bog'liqdir. Fikrimcha, Bugungi kunda insonlarning tabiatni asrashga bo'lgan e'tiborini, ularning tabiatga bo'lgan hurmat to'yg'usini va bu boradagi amalga oshirayotgan ishlarni ma'naviy jasorat qatoriga kiritishimiz noto'g'ri bo'lmaydi.

¹ O'zbekiston Musulmonlar idorasi “Namoz o'qish qoidalari”, “Toshkent islom universiteti” nash-matbaa birlashmasi. T.2012 y. 60-61 betlar.

²E.Xoliqov, A.Norboev, M.Ishxo'jaeva. “O'zbekistonda favqulodda vaziyatlarda davlat tizimi va uning barqarorlikni ta'minlashdagi o'rni”. Toshkent-2013 yil.

2.2 . O'zbekistonda Favqulodda vaziyatlarga qarshi qaratilgan chora- tadbirlar tizimi

Yurtboshimiz I. Karimov “O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari ” nomli asarida favqulodda vaziyatlarning bir ko'rinishi bo'lgan ekologik muammolar xususida to'xtalib, “ Milliy xavfsizlikka qarshi yashirin tahdidlarni ko'rib chiqar ekanmiz, ekologik xavfsizlik va atrof-muhitni muhofaza qilish muammosi alohida e'tiborga molikdir”, deb ko'rsatgan edi.

O'zbekiston Respublikasi hududi ham favqulodda vaziyatlar xavfidan xoli zona emas. Mamlakatimizda ham bu borada bir qator ishlar amalga oshirilgan. Mustaqillik yillarida mamlakat xavfsizligini ta'minlash, favqulodda vaziyatlarda iqtisodiy zararlar miqdorini hamda insonlar hayotiga xavf solishi mumkin bo'lgan vaziyatlarning oldini olish masalasida muhim islohatlar amalga oshirildi.

1996-yilning 1-martida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan “O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligini tashkil etish to'g'risida”gi farmoni qabul qilingan. Milliy qonunchiligimiz va ta'lim -tarbiya jarayonlarida ham favqulodda vaziyatlarga qarshi kurashishning ma'naviy jihatlariga alohida e'tibor qaratilib kelinmoqda. Bosh Qomusimizda ham tabiatni asrab-avaylash alohida fuqaro burchi ko'rsatib o'tilgan.¹ Ushbu jarayondagi ma'naviy omillar sirasiga ajdodlarimizdan qolgan boy ma'naviy meros, qadriyatlarimiz, muqaddas dinimiz ko'rsatmalari asosiy manba bo'lib xizmat qiladi.

Aholini favqulodda vaziyatlarga tayyorlash esa aholi va ishlab chiqarish ob'ektlari xavfsizligini ta'minlashning eng muhim, samarali yo'li hisoblanadi. Shu bois aholini Shu ningdek, yoshlarni bu borada egallayotgan bilimlari vaziyati alohida o'rganilib chiqildi. O'zbekiston Respublikasining “ Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”, “Ta'lim to'g'risida”gi qaroriga binoan umumiy o'rta ta'lim muassasalarining 1999-2000 va 2000-2001 o'quv yillariga mo'ljallangan o'tish davri o'quv rejasiga binoan “Hayot xavfsizligi asoslari” fani o'quv jarayoniga

¹O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. Toshkent -2012 yil.

kiritildi. 2001-yilda Favqulodda vaziyatlar vazirligi fuqaro muhofazasi instituti tomonidan “Hayot xavfsizligi asoslari” nomli o’qituvchilar uchun uslubiy qo’llanma chop etildi. Hozirgi vaqtda oliy ta’lim muassasalari talabalariga bu sohada ta’dim berish ishlari “Fuqaro muhofazasi va favquloddv vaziyatlar ” fani asosida 50 soat miqdorida tasdiqlangan o’quv dasturi asosida olib borilmoqda. O’rganilayotgan yillar davomida aholini favqulodda vaziyatlarga tayyorlash jarayoni takomillashib bordi va bu borada olib borilayotgan ishlar ko’lami ortdi.¹

1 mart — Xalqaro fuqaro muhofazasi kuni sifatida qadrlanadi va bu sana dunyoning qariyb barcha mamlakatlarida iliq kutib olinadi. Jumladan, tinchliksevar mamlakatimizda ham bu kunga alohida e’tibor qaratib kelinmokda. Yurtimizda faoliyat olib borayotgan fuqaro muhofazasining fidoyi xodimlari har yili ay-lanib keladigan ilk bahorning birinchi kunini tinch va osoyishtalik bilan hech bir talafotlarsiz kutib olishga harakat qilmoqdalar.

Shuni alohida e’tirof etish joizki, istiqloлга erishganimizning dastlabki yillaridayoq mamlakatimizda tinchlik va osoyishtalikni ta’minlash masalasi ustuvor vazifalar qatoridan o’rin oldi. Xususan, aholi va hududlarni tabiiy, texnogen va ekologik xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish, xalqimizning mo’tadil hayot faoliyatini ta’minlab turish borasidagi vazifalarni hal etishni o’z vaqtida anglagan O’zbekiston davlati 1991 yilda Fuqaro muhofazasi shtabi va uning joylardagi bo’linmalari bo’lmish sobiq Fuqaro mudofaasi tizimini qayta ko’rib chiqib, uni Fuqaro muhofazasi tizimiga aylantirdi. Bu amaldagi tizim yangidan tashkil etilgan O’zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi tarkibida Fuqaro mudofaasi va Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi sifatida faoliyat ko’rsatib kelayotgan edi.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996 yil 4 martdagi farmoniga binoan aholi va xalq xo’jaligi inshootlarini tabiiy ofatlardan muhofaza qilishning samarali tizimini tashqil etish, respublikada tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlarning oldini olish va uning oqibatlarini bartaraf etish

¹ E.Xoliqov, A.Norboev, M.Ishxo‘jaeva. “O’zbekistonda favqulodda vaziyatlarda davlat tizimi va uning barqarorlikni ta’minlashdagi o’rni”. Toshkent-2013 yil.

maqsadida O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining Fuqaro mudofaasi va Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi negizida O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi tashqil etildi.

Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish, aholi hayoti va salomatligini muhofaza qilish, favqulodda vaziyatlar vujudga kelganda ularning oqibatlarini tugatish hamda zararini kamaytirish sohasida davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish, favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday hollardagi harakatlarni boshqarishning davlat tizimini (FVDT) tashqil etish va uning faoliyatini ta'minlash FVVning asosiy vazifalari va faoliyat yo'nalishini tashqil etadi. Shu ningdek, fuqaro muhofazasiga rahbarlik qilish, vazirliklar, idoralar, mahalliy davlat organlari faoliyatini muvofiqlashtirib borish, maqsadli dasturlarni ishlab chiqish, xalqaro hamkorlikni yo'lga qo'yish kabi ustuvor vazifalarni o'z ichiga qamrab oladi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, respublikamiz o'zining iqlimi, jug'rofiy joylashuvi jihatdan boshqa mintaqalardan birmuncha farq qiladi. O'lkamiz zilzila, sel va suv toshqinlari, yer va qor ko'chki hodisalaridan xoli zona emas. Shu ning uchun xam ofatga qarshi hamkorlik aloqalarini mustahkamlash bugungi kunda dolzarb masalalardan biri sifatida qaralmoqda.

Tabiiy ofatlarning oldini olish, ro'y bergan taqdirda tez va qisqa muddat ichida bartaraf etishda hamkorlik masalalari muhim o'rin tutadi. FVV xamda uning qo'yi tuzilmalari tomonidan amalga oshirilayotgan muhofaza tadbirlari yildan-yilga takomillashib borayotgani va bugungi kunda o'zining ijobiy samarasini berayotgani hech kimga sir emas.

Bu tizimni yanada rivojlantirish va mustahkamlash, aholini favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishga tayyorlashni tashqil etish, ushbu vaziyatlarni aniq tasniflash, atrof-muhit monitoringini, markazlashgan xabar qilish tizimi tuzilishini tartibga solish, suv osti xizmatini yaratish, avariya-qutqaruv tuzilmalarini kengaytirish va ularni jihozlash, moddiy-texnik ta'minoti borasida davlatimiz tomonidan ko'zda tutilgan chora-tadbirlar katta yordam ko'rsatdi.

Xalqaro hamkorlik borasida ham ijobiy natijalarga erishildi. O'zbekiston hukumati Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va oqibatlarini bartaraf etishda birgalikda harakat qilish masalasi bo'yicha Rossiya Federatsiyasi, Tojikiston, Qirg'iziston va Qozog'iston respublikalari hukumatlari bilan bitimlar imzolagan. O'zbek qutqaruvchilari "Tinchlik yo'lida hamkorlik" dasturi doirasida, Shu ningdek, UDNR nemis qo'mitasi bilan, AKTDning Luiziana shtatidagi Milliy gvardiya bilan hamkorlik qilishda faol ishtirok etdilar. O'zbekiston FVV va AQSHning Favqulodda vaziyatlarda boshqaruv agentligi (FEMA) o'rtasida bitim imzolandi.

Favqulodda vaziyatlarning oldini olish masalalarida O'zbekistonning Toshkent, Buxoro, Andijon shaharlari Germaniyaning Berlin, Bonn, Boxum shaharlari bilan birodarlashganlar. 1999 yilda Toshkentda 20 davlat vakillari qatnashgan fuqaro muhofazasi masalalariga bag'ishlangan xalqaro kurslar bo'lib o'tdi. 2001 yilda esa AQSH davlat departamenti bilan hamkorlikda terrorizmning oldini olish masalalariga oid xalqaro seminar o'tkazildi.

O'z navbatida 100 ga yaqin xodimimiz dunyoning turli mamlakatlarida o'tkazilgan xalqaro seminarlar, kurslar va konferensiyalarda faol qatnashdilar. Kinologlarimiz Germaniyada tayyorgarlikdan o'tib keldilar. FVVning 50 nafarga yaqin ofitseri Rossiya Federatsiyasining Fuqaro muhofazasi akade-miyasida 2 yillik o'quv malakasini o'tab keldi. Hozirga paytda xalqaro aloqalarimiz o'zining ijobiy samarasini bermoqda. Turkiya, Tojikiston, Hindiston, Eron, Ukraina, Yaponiya mamlakatlaridagi zilzila va boshqa favqulodda vaziyatlardan jabrlangan aholiga ko'rsatgan insonparvarlik yordami va qutqaruv xizmatlari tufayli jonajon O'zbekistonimiz, qolaversa qutqaruvchilarimizning xalqaro miqyosdagi mavqei oshib borayotgani sir emas.

O'zbekistan FVVning 17 yili ichida chet ellik hamkorlaridan insonparvarlik yordami sifatida qutqaruv mashinalari, texnik asbob-uskunalar, tibbiy uskunalar, palatkalar, suv nasoslari olganligi xalqaro hamkorlikning amaliy natijasi ekanligidan dalolatdir.

2013 yil 28 — 30 apreľ kunlari boʻlib oʻtgan "Fargʻona - 2003" xalqaro qoʻshma oʻquv mashqlarining Markaziy Osiyo mamlakatlari orasida birinchi boʻlib Oʻzbekiston zaminida oʻtishi, bunday turdagi ilk mashgʻulotda xorijiy mamlakatlar va xalqaro tashkilotlardan 277 vaqil ishtirok etgani ham hamkorlik samarasidir. Bungacha ham respublikamiz vakillari tomonidan davlatlararo hujjatlar imzolangan boʻlib, turli seminarlar, mashgʻulotlarda ishtirok etishgan edi. Ana shu hamkorliklar natijasida xalqaro oʻquv mashqlarining Fargʻonada boʻlib oʻtgani ham bejiz emas, albatta. Ayni paytda hamkorlik munosabatlarimiz uzluksiz rivojlanib borayotgani bunga misol boʻla oladi.

2004 yilning kuzida Ruminiyaning Piteshti shaxrida «Tinchlik yoʻlida Hamkorlik» dasturi doirasida «Dasiya — 2004» xalqaro oʻquv mashqlari boʻlib oʻtgandi. Oʻzaro hamkorlik rejasiga muvofiq, bunday nufuzli xalqaro tadbirda oʻzbek qutqaruvchilari ham faol ishtirok etdilar. Shuningdek, FVV Qidiruv-qutqaruv otryadi terma komandasi 2006 yili oʻtkazilgan «KAZPAS» xalqaro musobaqalarida faol qatnashib, bunday nufuzli tadbirda sovrinli oʻrinni olgan edi. Oʻzbek qutqaruvchilarining malakali tarkibining muvaffaqiyat bilan shakllanishida Mudofaa vazirligi harbiylari, IIV yoʻl harakati xavfsizligi xizmati, yongʻin xavfsizligi muxandislari hamda shu sohaga yaqin boʻlgan yetuk mutaxassislar tinchlik va osoyishtalikni taʼminlash barobarida iqtisodiyotimizning barqaror oʻsishiga munosib hissa qoʻshib kelmoqdalar.

Umuman, oʻtgan yillar mobaynida mardligi, shijoatliligi hamda vazifalarini vijdonan ado etganligi uchun FVVning koʻplab xodimlari Oʻzbekiston Respublikasining orden va medallari, Faxriy yorliqlari bilan mukofotlandilar. Respublikamiz mustaqilligi sharofati bilan fuqaro mudofaasi harbiy yoʻnalishi tugatilib, FVV tuzilmalari tiklanishiga, favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularda turli harakat qilishni tashqil etilishiga, aholi va hududlarni turli koʻrinishdagi koʻngilsiz vaziyatlardan muhofaza qilish asoslarining qonun bilan mustaxkamlanishiga imkon tugʻdirdi.¹

¹ G. Aydarov "Osoyishta damlar qadri". "Muhoqaza+" jurnali. №3/2013 yil.7,21 betlar.

III-BOB. O'quvchi- yoshlarni favqulodda vaziyatlar davrida ma'naviy yuksaklik ruhida tarbiyalashning pedagogik omillari

3.1.O'quvchi- yoshlarga favqulodda vaziyatlar davrida ma'naviy yuksaklik ruhida tarbiyalashning pedagogik omillarini interfaol metodlar asosida tushu ntirish

Yurtboshimiz o'zlarining "Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch" asarlarida haqli ravishda ta'kidlaganlaridek "Agarki dunyo imoratlari ichida eng ulug'i maktab bo'lsa, kasblarning ichida eng sharaflisi o'qituvchilik va murabbiylikdir, desak o'ylaymanki, ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz. Chindanda o'z ertangi kelajagiga befarq bo'lmagan millat, yorug' va farovon kunlarini uning egalari bo'lmish yosh avlod istiqbolida ko'rgan millat ta'lim-tarbiyaga alohida e'tibor qaratadi.Istiqbol yillarida Prezidentimiz tashabbusi bilan avvalo ertangi kun egalari bo'lgan yosh avlod istiqboli, ta'lim-tarbiyasiga mas'ul bo'lgan ustoz va murabbiylar kasbiga bo'lgan munosabat o'zgardi. Jamiyatda bu sharafl va o'z navbatida o'ta mas'uliyatli kasb egalariga nisbatan yuksak hurmat va e'tibor davlat siyosati darajasiga ko'tarilib, doimiy e'tibor ostidadir.

Mamlakatimiz ta'lim tizimida uzoqni ko'zlab olib borilayotgan islohotlar bugun nafaqat jamoatchiligimiz, balki butun jahonda ham katta e'tibor bilan e'tirof etilmoqda.Bugun yangicha qiyofa kasb etgan, zamon talablari darajasida ta'mirlangan, eng so'nggi rusumdagi o'quv jihozlari bilan jihozlangan maktablar orzu emas ayni haqiqatdir.

Mamlakatimiz ravnaqi va isloqotlarning muvaffaqiyati ko'p jihatdan xalqning bilim darajasi va dunyoqarashiga bog'liq. Shaxsning ta'lim-tarbiya sohasidagi faolligi, uning chinakam fuqaroviy munosabati, demokratik islohotlarga intiluvchanligi belgilangan maqsadlarga tezroq erishishning muqim omilidir. Prezidentimiz ta'kidlaganidek, "Ta'lim-tarbiya - ong mahsuli, lekin ayni vaqtda ong darajasi va uning rivojini ham belgilaydigan omildir. Binobarin, ta'lim-tarbiya tizimini o'zgartirmasdan turib ongni o'zgartirib bo'lmaydi. Ongni, tafakkurni

o'zgartirmasdan turib esa biz ko'zlagan oliy maqsad - ozod va obod jamiyatni barpo etib bo'lmaydi".

Dars jarayonlarida interfaol metodlarni qo'llashdan asosiy maqsad – o'qitish jarayonining maqsadlarini amalga oshirish va Shaxsni har tomonlama rivojlantirishidir. Bu esa nafaqat ta'lim jarayonining mazmunan yangilanishiga, balki, pedagogik jarayonning asosiy boshqaruvchisi bo'lgan o'qituvchi Shaxsi, uning boshqaruv mazmuni va harakat yo'nalishiga ham sezilarli o'zgartirishlar kiritishni talab etadi. Shu ningdek, innovatsion o'qitishda bilimlar vazifasi ham o'zgarib, ya'ni avvalgi doimiy yod olishdan mantiqiy fikrlash, izlanishga o'tiladi. Bunday faoliyat ta'lim oluvchi faoliyatidagi ijodkorlikni rivojlantiradi. U o'z tengdoshlari va o'qituvchisi bilan o'zaro faol «subekt-subekt» munosabatlariga kirishadi.

Interfaol so'zi inglizcha so'z bo'lib, «inter» – o'zaro va «act» – harakat qilmoq ma'nolarini bildirib, ularning umumiy mazmuni interfaol – ya'ni o'zaro harakat qilmoq ma'nosini anglatadi. Bunday o'zaro harakat turlariga o'quvchi va o'qituvchining maqsadli harakatini kiritish mumkin. Interfaol o'qitishda o'qituvchi o'quv faoliyatninig faol taShkilotchisi bo'lib, o'quvchi bu faoliyatning subekti sifatida namoyon bo'ladi. Interfaol usullar o'quvchilardan axborotlarni o'zlashtirish jarayonidagi faollikni, ijodkorlik, mustaqillikni Shakllantiribgina qolmay, o'qitish maqsadlarining to'laqonli amalga oshishiga yordam beradi. Bugungi kunda o'qitish tizimidagi eng samarali interfaol o'qitish metodlari va texnikalariga quyidagilarni kiritishimiz mumkin bo'ladi: «Sinkveyn», «Klaster», «Charxpalak», «Aqliy hujum», «Skrabey», «Ikki qismli kundalik», «Venn Diagrammasi», «TuShu nchalar tahlili», «Debatlar», «6-3-5», «Akvarium», «Davra suhbatlari», «Insert», «Assesment», «Fidbeyk», «Pinbord», «Juftliklarda ishlash», «Beshinchisi ortiqcha», «Chorraha» texnikasi v.h.k

3.2. Mavzuga oid dars ishlanmasi

Mavzu:	O'quvchi- yoshlarni favqulodda vaziyatlarga qarshi tayyorlashning ma'naviy jihatlarini
---------------	---

MA'RUZA MASHG'ULOTLARINING TA'LIM TEXNOLOGIYASI

<i>Vaqt – 2 soat</i>	<i>O'quvchilar soni: 25-30 nafar</i>
<i>O'quv maShg'ulotining Shakli:</i>	<i>Ma'ruza maShg'uloti:</i>
<i>Ma'ruza mashg'ulotining rejasi</i>	1. Favqulodda vaziyatlar tuShu nchalari va ularning ma'naviy hayotimizda aks etishi. 2. Favqulodda vaziyatlarni oldini olishning ma'naviy ma'rifiy omillari. 3. O'zbekistonda favqulodda vaziyatlarga qarshi qaratilgan chora-tadbirlar tizimi.
<i>O'quv maShg'ulotining maqsadi:</i> O'quvchi- yoshlarni favqulodda vaziyatlarga qarshikurashishning ma'naviy jihatlarini shakllantirish va rivojlantirish.	
<i>Pedagogik vazifalar:</i> - Tabiatga nisbatan bo'lgan loqaydsizlikning jamiyat taraqqiyotidagi salbiy oqibatlari, uning vujudga keltiruvchi omillar, xususiyatlari, favqulodda vaziyatlar va ularga qarshikurashda ma'naviy-ma'rifiy bilimga ega bo'ladilar. 2.Hozirgi jarayonlarda favqulodda vaziyatlar hamda ularning oldini olishga qaratilgan tadbirlar, tabiat va inson uyg'unligini angaSh uchun olib borilayotgan ma'naviy – ma'rifiy ishlar, ularni yoshlar ongigasingdirishning usullari haqida	<i>O'quv faoliyatining natijalari:</i> 1.Favqulodda vaziyatlarning salbiy oqibatlari, ularningjamiyat va davlat taraqqiyotga xavf soluvchi omil ekanligi, Ularning oldini olishda ma'naviy meroslarimizning, qadriyatlar va urf-odatlarimizning, oila, mahalla va ta'lim muassasasining o'rni haqida bilim va malakaga ega bo'ladilar. 2.Ma'naviy – ma'rifiy tadbirlar tabiat va inson uyg'unligini anglab yetishida o'ziga xos tuShu ncha hosil qiladi.
<i>O'qitish uslubi va texnikasi</i>	Aql charxi, , klaster,FIDBEYK, metodlari
<i>O'qitish vositalari</i>	Ma'ruzalar matni, tarqatma materiallar, slaydlar, proyektor, marker, doska
<i>O'qitishShakli</i>	Jamoa, guruhlarda va juftlikda ishlaSh
<i>O'qitishshart-sharoiti</i>	Proyektor, kompyutor bilan jihozlangan

	auditoriya
--	------------

Ma'ruza mashg'ulotining texnologik xaritasi:

Bosqichlar, vaqti	Faoliyat mazmuni:	
	O'qituvchi:	O'quvchi:
1-bosqich. Kirish (10 min)	1.1. Salomlashib, mavzuga o'tishdan oldin qisqa daqiqali aqliy hujim maShqini o'tkazadi(1-ilova) 1.2. So'ng mavzu, uning maqsadi, o'quv mashg'ulotidan kutilayotgan natijalarni ma'lum qiladi(2-ilova)	1.1.Aql charxi uchun ajratilgan qisqa daqiqali jarayonda faol bo'ladi. 1.2. Ma'ruzaga tayyorgarlik ko'radi.
2-bosqich. Asosiy qism (60 min)	2.1. Mavzuga oid savol-javoblar jarayonini mavzu bilan bog'lanadi. boShlaydi. "KLAster" texnologiyasi asosida. (3- ilova) 2.2.O'quvchilarning fikrlariga aniqlik kiritadi, vizual ma'ruzaning kerakli joylarini yozib olishlarini taklif etadi.	2.1.Savollarni tinglaydi, blits-so'rov jarayonida ishtirok etadi. 2.2.Ma'ruzani diqqat bilan tinglaydi. 2.3.Chizmani to'ldirib, o'qituvchining xulosasi bilan solishtiradi 2.4. Vizual ma'ruzaning kerakli joylarini yozib oladi.
3-bosqich: Yakuniy qism: (10 min)	3.1. Mavzuga yakun yasaydi, darsda faol ishtirok etgan o'quvchilarni rag'batlantiradi. 3.2. Mustaqil ish uchun o'quvchilarga "FIDBEYK" metordlari asosida savollar taqdim etadi, ularga yozma javob tayyorlashni topshiradi(4-ilova)	3.1.Eshitadi 3.2.Uyga berilgan vazifani yozib oladi.

1-ilova

Aqliy hujum qoidasi

Hech qanday birgalikdagi baholash va tanqid!

Berilayotgan g'oyalar, hayoliy va juda zo'r bo'lsa ham ularni baholashga shoshilma, Hamma narsaga ruxsat etiladi.

Tanqid qilma - barcha berilayotgan g'oyalar qimmatli.

**O'quvchi- yoshlarni favqulodda vaziyatlarga qarshi
kurashishning ma'naviy jihatlari**

- 1.** Favqulodda vaziyatlar tushunchalari va ularning ma'naviy hayotimizda aks etishi.
- 2.** Favqulodda vaziyatlarni oldini olishning ma'naviy ma'rifiy omillari.
O'zbekistonda favqulodda vaziyatlarga qarshi qaratilgan chora-tadbirlar tizimi.
- 3.** O'zbekistonda favqulodda vaziyatlarga qarshi qaratilgan chora-tadbirlar tizimi.

**Mavzu: O'quvchi- yoshlarni favqulodda vaziyatlarga qarshi
kurashishning ma'naviy jihatlari:**

Reja:

- 1. Favqulodda vaziyatlar tushunchalari va ularning ma'naviy hayotimizda aks etishi.*
- 2. Favqulodda vaziyatlarni oldini olishning ma'naviy ma'rifiy omillari.
O'zbekistonda favqulodda vaziyatlarga qarshi qaratilgan chora-tadbirlar tizimi.*
- 3. O'zbekistonda favqulodda vaziyatlarga qarshi qaratilgan chora-tadbirlar tizimi.*

Favqulodda vaziyat – bu muayyan hududda o'zidan so'ng odamlarning qurbon bo'lishi, odamlar sog'ligi va atrof –muhitga ziyon yetkazishi, kishilarning hayot faoliyatiga kattagina moddiy zarar hamda uning buzi lishiga olib kelishi mumkin bo'lgan yoki olib kelgan avariya, halokat, stixiyali ofat, epidemiyalar, epizootiyalar natijasida yuzaga kelgan vaziyatdir.

Ya'ni yuzaga kelgan xavfli vaziyatda quyidagi beSh alomatdan hech bo'lmasa birontasi yuzaga kelsa, ushbu vaziyat favqulodda vaziyatga aylanishi mumkin. Ular:

- odamlar qurbon bo'lishi;*
- odamlarning sog'ligiga zarar yetishi;*
- insonning hayot faoliyati izdan chiqishiga olib kelishi;*
- jiddiy moddiy talofatlar keltirib chiqarishi;*
- atrof-muhitga zarar yetishi.*

Favqulodda vaziyatlar va ular bilan bog'liq ko'pgina yangi terminlarga O'zbekiston Respublikasining Shu sohadagi qonunlari va Vazirlar Mahkamasining qarorlarida tuShu nchalar berib o'tilgan.

Jumladan, Favqulodda vaziyat (FV) — odamlar qurbon bo'lishi, ularning sog'lig'i yoki atrof-muhitga zarar etishi, jiddiy moddiy talafotlar keltirib chiqarishi hamda inson hayot faoliyatining izdan chiqishiga olib kelishi mumkin bo'lgan yoki olib kelgan avariya, halokat, xavfli tabiiy hodisa yoki boshqa tabiiy ofat natijasida muayyan hududda yuzaga kelgan vaziyat.

Favqulodda vaziyatlarning sabablari xilma-xil bo'lsada, ularni uch asosiy turga ajratsa bo'ladi:

- tabiat shakllantirgan sabablar,*
- inson shakllantirgan sabablar,*
- inson va tabiat birligidan kelib chiqqan sabablar.*

Aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish— favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish choralari, usullari, vositalari tizimi, sayi-harakatlari majmui.

Favqulodda vaziyatlarning oldini olish — oldindan o'tkazilib, favqulodda vaziyatlar ro'y berishi xavfini imkon qadar kamaytirishga, bunday vaziyatlar ro'y bergan taqdirda esa odamlar sog'lig'ini saqlaSh, atrof-muhitga etkaziladigan zarar va moddiy talafotlar miqdorini kamaytirishga qaratilgan tadbirlar majmui.

Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish — favqulodda vaziyatlar ro'y berganda, odamlar hayoti va sog'lig'ini saqlash, atrof-muhitga etkaziladigan zarar va moddiy talafotlar miqdorini kamaytirish, Shu ningdek, favqulodda vaziyatlar ro'y bergan zonalarni halqaga olib, xavfli omillar ta'sirini tugatishga qaratilgan avariya-qutqaruv ishlari va kechiktirib bo'lmaydigan boshqa ishlar kompleksidir.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Texnogen, tabiiy va ekologik tusdagi favqulodda vaziyatlarning tasnifi to'g'risida" gi qarorida O'zbekiston Respublikasi hududida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan barcha favqulodda vaziyatlar kelib chiqish xarakteriga ko'ra, uch turga:

Tabiiy, texnogen va ekologik favqulodda vaziyatlarga bo'linadi.

Texnogen xarakterdagi favqulodda vaziyatlar

Texnogen xarakterdagi favqulodda vaziyatlarga: transport avariylari va halokatlari texnogen xarakterdagi favqulodda vaziyatga kirib, u havo, temiryo'l, avtomobil, metropoliten transportlarida yuz bergan halokatlar hamda avariylarni o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, gaz-neft quvurlarining yorilib ketishi, sanoat korxonalaridagi portlash va hokazolar ham Shu nday favqulodda vaziyatlarga kiradi.

Bu tusdagi favqulodda vaziyatlarni quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

- 1.Transport avariylari va halokatlari.*
- 2.Kimyoviy xavfli ob'ektlardagi avariylar.*
- 3.Yong'in-portlash xavfi bo'lgan ob'ektlardagi avariylar.*
- 4. Energetika va kommunal tizimlardagi avariylar.*
- 5. Ijtimoiy yo'nalishdagi binolar konstruktsiyalarini to'satdan buzilishi oqibatida kelib chiqadigan avariylar.*
- 6.Gidrotexnik avariylar.*
- 7. Radioaktiv va boshqa ekologik zararli moddalarni saqlash yoki foydalanish bilan bog'liq bo'lgan avariylar.*

1996-2002 yillar davomida yuz bergan texnogen tusdagi favqulodda vaziyatlar sabablari mutaxassislar tomonidan o'rganib chiqildi va texnogen tusdagi

favqulodda vaziyatlarning yuz berish sabablarini Shartli ravishda ikkiga ajratish mumkin bo'ldi.

Birinchi, inson istak xohishiga bo'sunmagan omillar kiradi. Bunday omillar zilzilalar, suv toshqinlari, sel, qattiq shamol, yer surilishlari, cho'kishlarining texnogen tushdagi favqulodda vaziyatlarning vujudga keltirishi;

ikkinchi omillar turiga kiradigan asosiy sabablar quyidagilardan iborat: energetika, yonilg'i, ximiya sohalaridagi asosiy ishlab chiqarish fondlarini yuqori suratda eskirishi;

- modernizatsiyalash, remont va Shu ningdek profilaktik ishlarini yetarli miqdorda amalga oshirilmasligi;

-ishlab chiqaruvchilarning past malakada ekanligi;

-texnika va yong'in, Shu ningdek yo'l harakati xavfsizligidagi qo'pol xatolarga yo'l qo'yilganligi;

-hayot faoliyati xavfsizligi asoslarini bilmaslik;

-xalq xo'jaligi ob'ekti rahbarlari va xodimlarining favqulodda vaziyatlar yuz bergandagi harakatining bilim darajasidagi zaiflik.

Demak, texnogen tushdagi favqulodda vaziyatlar yuz berishi ob'ektiv va sub'ektiv sabablarga bog'liq.

Texnogen tushdagi favqulodda vaziyatlarning o'ziga xos xususiyati bunday favqulodda vaziyatlarning katta qismi lokal xarakterga ega ekanligida. Shu bilan birga mazkur tushdagi favqulodda vaziyatlar ekologik xarakterdagi ayrim favqulodda vaziyatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Shu ning uchun ham ekologik favqulodda vaziyatlarga antropogen ta'sirning o'rni katta.

Tabiatga bulgan munosabatda insondagi ma'naviy qarash, ma'naviy kamolot asosiy omil hisoblanadi.

Tabiat qo'ynida yashab kelayotgan insonning bugungi kunda taraqqiyot cho'qqisiga chiqishida tabiat va uning hodisalarining ham o'rni katta. Bugun yuz berayotgan turli ko'rinishdagi tabiiy ofatlar , yer silkinishlari , dovullar va Shamollar, suv toshqinlari , havoning ifloslanishi va Ozon qatlamining yemirilishi

yuz bermoqdaki bu esa insoniyatni haqli suratda tashvishga solmoqda. Odamzodning yagona yaShaSh makoni Yer kurrasi, atrof muhit esa uning “o’tirgan Shoxi”dir. Tabiat va uning in’omlari bor ekan, inson yaShay oladi, baxtli hayot kechira oladi.

Ibtidoiy davrlarda insonlarning aynan tabiat hodisalari va kuchlari oldidagi ojizliklari ibtidoiy din Shakllarini vujudga kelishiga sabab bo’lgan. Qadimgi xalqlar o’zlarining xudolarini tabiat hodisalari bo’lmish momaqaldiraq, oy, quyosh, suv, Shamol , dengiz, vulqon, sahro va boshqa Shu kabi nomlar bilan atab kelishgan. Albatta bu xudolar har bir xalqning yaShayotgan tabiatiga bog’liq bo’lgan va Shu tabiat hodisalariga sig’inishgan. Tabiiy ofatlar insoniyat boShiga juda ko’p moddiy va ma’naviy zararlar olib kelgan. Qadimgi dunyoning yetti mo’jizalarida turtasi mana Shu tabiiy ofatlar yoki inson qo’li bilan sodir etilgan tabiiy ofatlar natijasida yo’q bo’lib ketgani barchamizga yaxshi ma’lum. Tabiiy ofatlar va ularni oldini olish haqidagi qarashlar SHarq xalqlari, jumladan, O’rta Osiyo xalqlari hayotida ham uchraydi. Zardo’Shtiylik ta’limoti va uning muqaddas kitobi “Avesto” da tabiat unsurlari jumladan, suv ,havo, olov, tuproq muqaddas sanalgan . Tabiat ne’matlariga zarar yetkazish yoki ularni payhon qilish jinoyat sifatida qabul qilingan va ularga jazolar tayinlangan

Bunga qadimdan ota-bobolarimiz juda katta e’tibor berib kelishgan. Jumladan, zardo’shtiylik dinida , Shu ningdek islom dinida xam tabiatga, insonga uni qurShab turgan atrof-muhitga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo’lishgan. Bunga o’tmishdan ko’plab dalillar keltirish mumkin. Zero, vatandoshimiz Shayx Najmiddin Kubro o’zining islom olamida maShhur bo’lgan “ Ofaq va anfus “ nazariyasida insondagi o’zgarishlar ulug’ olam bilan bog’liqdir , deb ta’kidlagan.” Ofaq va anfus” degani, yozadi Najmiddin Kubro , olami sag’ir(inson) va olami kabir(tabiat) orasidagi munosabatlardir. Olami kabirda bo’lgan har qanday o’zgarish albatta olami sag’irga o’z ta’sirini ko’rsatadi.

Yurtboshimiz I. Karimov “O’zbekiston XXI asr bo’sag’asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari ” nomli asarida favqulodda vaziyatlarning bir ko’rinishi bo’lgan ekologik muammolar

xususida to'xtalib, " Milliy xavfsizlikka qarshi yashirin tahdidlarni ko'rib chiqar ekanmiz, ekologik xavfsizlik va atrof-muhitni muhofaza qilish muammosi alohida e'tiborga molikdir", deb ko'rsatgan edi.


O'zbekiston Respublikasi hududi ham favqulodda vaziyatlar xavfidan xoli zona emas. Mamlakatimizda ham bu borada bir qator ishlar amalga oShirilgan. Mustaqillik yillarida mamlakat xavfsizligini ta'minlaSh, favqulodda vaziyatlarda iqtisodiy zararlar miqdorini hamda insonlar hayotiga xavf solishi mumkin bo'lgan vaziyatlarning oldini olish masalasida muhim islohatlar amalga oShirildi.

1996-yilning 1-martida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan "O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligini tashkil etish to'g'risida"gi farmoni qabul qilingan. Milliy qonunchiligimiz va ta'lim -tarbiya jarayonlarida ham favqulodda vaziyatlarga qarshi kurashishning ma'naviy jihatlariga alohida e'tibor qaratilib kelinmoqda. BoSh Qomusimizda ham tabiatni asrab-avaylash alohida fuqaro burchi ko'rsatib o'tilgan. Ushbu jarayondagi ma'naviy omillar sirasiga ajdodlarimizdan qolgan boy ma'naviy meros, qadriyatlarimiz, muqaddas dinimiz ko'rsatmalari asosiy manba bo'lib xizmat qiladi.

Aholini favqulodda vaziyatlarga tayyorlaSh esa aholi va ishlab chiqarish ob'ektlari xavfsizligini ta'minlaShning eng muhim, samarali yo'li hisoblanadi. Shu bois aholini Shu ningdek, yoshlarni bu borada egallayotgan bilimlari vaziyati alohida o'rganilib chiqildi. O'zbekiston Respublikasining " Kadrlar tayyorlaSh milliy dasturi", "Ta'lim to'g'risida"gi qaroriga binoan umumiy o'rta ta'lim muassasalarining 1999-2000 va 2000-2001 o'quv yillariga mo'ljallangan o'tish davri o'quv rejasiga binoan "Hayot xavfsizligi asoslari" fani o'quv jarayoniga kiritildi. 2001-yilda Favqulodda vaziyatlar vazirligi fuqaro muhofazasi instituti tomonidan "Hayot xavfsizligi asoslari" nomli o'qituvchilar uchun uslubiy qo'llanma chop etildi. Hozirgi vaqtda oliy ta'lim muassasalari talabalariga bu sohada ta'dim berish ishlari "Fuqaro muhofazasi va favquloddv vaziyatlar " fani asosida 50 soat miqdorida tasdiqlangan o'quv dasturi asosida olib borilmoqda. O'rganilayotgan yillar davomida aholini favqulodda vaziyatlarga tayyorlaSh jarayoni takomillaShib bordi va bu borada olib borilayotgan ishlar ko'lami ortdi.


1 mart — Xalqaro fuqaro muhofazasi kuni sifatida qadrlanadi va bu sana dunyoning qariyb barcha mamlakatlarida iliq kutib olinadi. Jumladan, tinchliksevar mamlakatimizda ham bu kunga alohida e'tibor qaratib kelinmokda. Yurtimizda faoliyat olib borayotgan fuqaro muhofazasining fidoyi xodimlari har yili ay-lanib keladigan ilk bahorning birinchi kunini tinch va osoyishtalik bilan hech bir talafotlarsiz kutib olishga harakat qilmoqdalar.

3-ilova




FIDBEYK TEXNOLOGIYASI

*Bugungi darsdan
nimani o`rgandiz?*




*Mavzuning qaysi
juhatlari sizda qiziqish
uyg`otdi?*



*Aynan qaysi
ma`lumotlar siz uchun
yangilik?*



*Bugungi mavzu
yuzasidan istiqbol
rejalaringiz?*



MAVZUGA OID TAYANCH TUSHU NCHA VA IBORALAR

N	O'zbekcha	Ruscha	Inglizcha
1	Favqulodda holat	Chrezv`chayniy polojeniye	An emergency
2	Tabiat	Priroda	Nature
3	Inson	Chelovek	Person
4	Yer	Zemlya	Earth, ground
5	Suv	Voda	Water
6	Olov	Ogon	Fire
7	Daraxt	Derevo	Tree
8	ijtimoiy	Sotsialniy	Sotsium
9	Yoshlar	molodej	Young
10	Tabiiy ofat	Stixiynoe bedstvie	Natural calamity
11	Ma'naviyat	Duhovnost	Spiritual
12	G'oya	Ideya	Idea
13	Mafkura	Ideologiya	Ideology
14	Ilmiy	Texnicheskiy	Scientific
15	Axloqiy	Nravstvenniy	Moral
16	Ma'naviy	Politicheskiy	Spiritual
17	Huquqiy	Yuridicheskiy	Legal
18	Falsafiy	Filosofskiy	Logical
19	Diniy	Religiozniy	Religious

20	Ezgu soʻz	Dobriy slovo	Kind word
21	Ezgu amal	Dobriy chin	Kind action
22	Ezgu fikr	Dobriy vzglyad	Kind opinion
23	Qurʻoni karim	Kurʻan	The Koran
24	Yozma yodgorlik	Pismenniy pamyatnik	Written memory
25	Ekologiya	Ekologiya	Ekologiya
26	Zardushtiylik	Zardushtiylik	Zardushtiylik
27	Taʻlim	Prepodavaniye	Education
28	Tarbiya	Vospitaniye	Care; education
29	Tarix	Ictoriya	History
30	Beparvolik	Bespechnost	Carelessness
31	Kelajak	Budushnost	Future
32	Manfaat	Polza	Benefit
33	Jazo	Nakazaniye	Punishment
34	Yomgʻir	Dojd	Rain
35	Sel	Sel	Heavy rain
36	Suv toshqini	Voda razlib	Downpour
37	Boʻron	Buran	Storm
38	Yongʻin	Pojar	Conflagration
39	Toʻfon	Uragan	Smirch
40	Xayvonot	Jivotniye	Animals
41	Oʻsimlik	Vyusheesya rasteniye	Plant
42	marosim	Seremoniya	Geremony

43	qardiyat	Aksiologiya	Axriman
44	Mutafakkir	M`slitel`	Thinker
45	Quyosh	Sontse	Sun
46	Atrof-muhit	Okrestnost	Environment
47	Vandidod	Vandidod	Vandidod
48	Texnologiya	Texnologiya	texnology
49	Qabila	Plemya	Tribe
50	Xalq	Narodnost	people

XULOSA

Inson va tabiat, ular o'rtasidagi munosabatlarning to'g'ri yo'lga quyilmaganligi oqibatida bugungi kunda ko'pgina ekologik inqirozlar ro'y bermoqda.

Ushbu bitiruv malakaviy ishida turli tusdagi favqulodda vaziyatlar insoniyat ma'naviy, diniy, falsafiy-axloqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy tafakkuri taraqqiyotida ta'sir etib xalqlarning diqqat markazida bo'lib kelganligi, hamda ularning ijtimoiy hayotda o'z aksini ko'rsatib kelganligi va insoniyat bunday hodisa, halokat va ofatlar bilan yonma-yon yashab kelganligi hamda ular ma'naviy hayotimizda singib ketganligini yoritib berishga harakat qilindi. Holbuki, bugun davlatlar o'rtasidagi o'zaro siyosiy, iqtisodiy va boshqa masalalar muhokamasida favqulodda vaziyatlarni oldini olish va ular yuz berganda o'zaro yordam berish asosiy masalalardan biriga aylanib bormoqda. Masalan, Tojikiston Rog'un GESi ning qurilishi tinchliksevar kishilarning noroziligi sabab bo'layotganini, Turkmaniston bilan O'zbekiston Prezidentlari o'rtasida favqulodda vaziyatlarga o'zaro yordam berish borasidagi keliShu vlarini bunga misol qilib keltirish mumkin.

Ma'lumki, 1991 yil Jigaristonda yuz bergan Yer kuchkisi oqibatlari muhokama qilinar ekan Prezidentimiz 1994 yilda Vazirlar Mahkamasida bo'lib o'tgan yig'ilishda yurtimizda har bir inson hayoti qadrli ekanligini, Vatan degan tuShu ncha har bir kishi uchun faqat o'zi tug'lgan joy emas, balki O'zbekistonning har bir burchagi ham Vatan ekanligini qayd etdi. Chunki Jigariston qishlog'idagi aholi kuchki xavfidan oldin ogohlantirilgan, ular uchun yashash sharoitlari mavjud joylarga kuchib o'tish aytilgan edi. Biroq, qirq yil qirg'in kelsa ham ajali yetgan o'ladi, Shu yerda tug'ilganman Shu yerda o'laman degan fikr ko'plab kishilarni tor ma'nodagi fikri bu yerda ustunlik qilgan edi.

Mamlakatimizda inson oliy qadriyat ekanligini va u har narsadan ustun hamda e'zoz tutilishini bu borada qabul qilingan qonunlar misolida ham ko'rish mumkin.

1999 yilda “Aholini va hududlarni texnogen va tabiiy tusdagi favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risida”gi qonunning 18 moddasi, 2000 yilda “Fuqaro muhofazasi to'g'risida”gi qonunning 16 moddasida aholini, jumladan o'quvchilarni favqulodda vaziyatlarga tayyorlash umumiy va majburiy xarakterga ega deb ko'rsatilgan.

Holbuki, aholini turli favqulodda vaziyatlarga tayyorlashning muhim tamoyillaridan biri ma'naviy xislatlarga, insonparvarlik fazilatlariga borib taqaladi. Buni mamlakatimiz tomonidan bunday vaziyatlarda aziyat chekkan xalqlarga va davlatlarga berayotgan beg'araz insonparvarlik misolida ham ko'rishimiz mumkin.

Bundan tashqari 2011 yil Farg'ona yuz bergan Yer silkinishi oqibatlarini tahlil etilib, chiqarilgan xulosalar Shu nday bo'ldiki, buni Shu yili Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan 19 iyuldagi 208-sonli qarori, 24 avgust kuni qabul qilingan 242 sonli qarorlari misolida ham ko'rish mumkin. Bu qarorlarda mamlakatimiz aholisini favqulodda vaziyatlarga tayyorlash, ular yuz berganda to'g'ri harakat qilishni tashkil etish, oqibatlarini kamaytirish masalalari qo'yilgan edi.

Holbuki, xalqimiz orasida falokat oyoq ostida deb bekorga aytilmaydi. Shuning uchun ham biz, ayniqsa pedagoglar bu borada ozroq bilim va ko'nikmaga ega bol'sak, ko'plab kishilarni hayotini bunday voqealar yuz berganda saqlab qola olishimiz mumkin. Chunki dars paytida, darsdan tashqarida biz o'quvchi-yoshlar bilan doimo hamkorlikda birga ishlashni kasbimiz taqazo etadi.

Shu sabab bitiruv malakviy ishimning xulosa qismida quydagilarni taklif etmoqchiman:

I –TAKLIF: Fakolat oyoq ostida deyдилar. Bugun dunyoda yuz berayotgan fakolat va halokatlar insonning o'zi ham ma'lum ma'noda sababchi bo'lib qolmoqda. Shu sababli ham bitiruv malakviy ishida berayotgan taklifim xalqlar o'rtasida ijtimoiy hamkorlikni kuchaytirish lozim. Bu hamkorlik tabiatga nisbatan o'zaro hurmat tuyg'usini o'zida qanrab olishi shart.

II – TAKLIF: Fanlarda gumanistik g'oyalar singdirilar ekan, uni bugun dunyoda yuz berayotgan tabiat hodisalari, texnogen halokatlar va ekologik ofatlar paytida xalqlar va davlatlarning insonparvarlik yordami aniq misollar bilan ko'rsatilishi shart. Masalan, ayni paytda Bosniya aholisining suv toshqinlaridan azob chekayotgani, unga Evropa davlatlari insonparvarlik yordamini ko'rsatayotgani,

4-may kuni Afg'onistondagi yer ko'chkisi ostida qolib ketgan ikki ming kishiga ta'ziya bildirilib, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ta'ziyanoma yuborgani yoki Shu nga o'xshash ko'plab voqeliklar yuz bermoqdaki bu o'ziga xos insoniylikni talab etadi.

III – TAKLIF: Bugun turli tusdagi favqulodda vaziyatlardan muhofazalash borasida O'zbekiston Respublikasi qonunlarida belgilab berilgan aholini favqulodda vaziyatlarga tayyorlash umumiy va majburiy ekanligi belgilab qo'yilganini hammamiz anglab yetishimiz zarur. Buning uchun maktab, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari, oliy ta'lim muassasalari o'quv dasturlariga e'tibor qaratish lozim, deb bilamiz. Masalan, Bosniyada yuz berayotgan tabiiy ofatdan, Afg'onistonda bo'lib o'tgan yer ko'chkisidan xulosa chiqarishimiz lozim. Holbuki, yurtimiz bunday xavflardan xoli emas.

IV – TAKLIF: Milliy g'oya: asosiy tuShu ncha va tamoyillar, ma'naviyat asoslari, ijtimoiy gumanitar fanlar sirasiga kiruvchi tarix, dinshunoslik, qadriyatlar falsafasi, falsafa kabi fanlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlar haqida gapirilar eka, ularni ilmiy asoslab berish muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan:

1. Xalqimiz oilani tabiat jismlariga o'xshatishadi:kuyovni-Quyoshga, kelinni Oyga. Chunki, qadimdan koinotning har ikki jismi ham yaxshilik ramzi sifatida ishlatilib kelingan.
2. Kishi boshiga biror bir noxushlik yoki baxtsizlik kelsa unga dalda berish maqsadida bundan keyin yaxshi bo'lishini tilab "Oyning o'n beshi qorong'u bo'lsa, o'n beshi yorug'" deydilar.

3. Biron kishi o`zini xatosini yoki qilgan aybini kechirishlarini istab, yana tabiat jismlaridan panoh topadi “Oyning ham yuzida dog`i bor” deb.

V – TAKLIF: Fanlar o`rtasida o`zaro uzviylikni ta`minlash orqali ham tushuntirish ishlarini olib borish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I.Qonun hujjatlari

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi T.: 2012 y.
2. O'zbekiston Respublikasining "Aholi va hududlarni texnogen va tabiiy tushdagi favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonun.asoslari.
3. O'zbekiston Respublikasining "Chiqindilar to'g'risida"gi qonuni 2003-y. huquqiy meyoriy Hujjatlar to'plami.

II. Prezident asarlari

1. Karimov I.A . O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T.: O'zbekiston, 1998 y;
2. Karimov I.A "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch". – T.: Ma'naviyat, 2008 y.

III.Asosiy va qo'shimcha adabiyotlar

1. Qur'oni Karim. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf tarjimai. Sharq. 2009y.
2. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Tafsiri hilol. To'rtinchi juz. Tuzatilgan va qo'shimcha qilingan ikkinchi nashr.-T.: Sharq, 2008 yil
3. Xoliqov, A. Norboev, M. Ishxo'jaevalarning "Favqulodda vaziyatlarda davlat tizimi va uning mintaqa barqarorligidagi o'rni" TDPU 2013 y.
4. O'z R FFV, Favqulodda vaziyatlarda boshqaruv markazi. Ma'lumot Blyutenlari 2013-2014 y.
5. Bolalar entsiklopediyasi "U kim, bu nima" 2 qism,T., 1987 y.
6. Krushkol Yu.S tah ost. "Qadimgi dunyo tarixi" – T.: "O'qituvchi" nashr, 1975 y
7. Nazarov Q. "Aksiologiya qadriyatlar falsafasi", T.: "Ma'naviyat" 1998 y
8. Mamashokirov S. "Vahimami yoki haqiqat" T.: Iqtisod-moliya, 2012y.
9. Abdiyev B.A. "Qadimgi dunyo tarixi"- T.:1975 y
10. G'ofurov Z. "Tabiatni muhofaza qilishning ma'naviy omillari", T.: "IQTISOD - MOLIYA", 2001.
11. Xoliqov I., Norboev A., Ishxo'jaeva M. "Favqulodda vaziyatlarda davlat tizimi va uning mintaqa barqarorligidagi o'rni"- T.: TDPU 2013 y.
12. "Avesto" tarixiy –adabiy yodgorlik. Asqar Mahkam tarjimai, T.: "Sharq", 2001 y.
13. Hamidov H.. "Avesto fayzlari", A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nash, T. – 2001 y.
14. Norboyev A., Mingboyev X., Yorqulov N. "Suv, sel, toshqin" – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2012 y.
15. "Avesto qadriyatlari: zamonaviylik, din va falsafa" mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konfrensiya materiallari.- T.:O'zMU, 2013 y.
16. Roziqov K.X va b. "Atrof muhit ekonomiyasi" T.: "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2012 y
17. Ibrohimov A., "Ruhiy oziq maxzani", T.: "Yangi asr avlodi", 2009 y.

18. Hotamov G'.A'zamov Q. "Mustaqillik maydoni", O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti. T.: 2008.
19. Muhamadazimov. M."Astronomiya", T.: "O'qituvchi", 2003 y.
20. Xoliqov E. , Siddiqov B., Rustamov M., Mirzaev A. "Qalban uyg'onish davri", T.: "EXSTRAMUM PRESS"-2011 yil
21. Ilyosova Z.F. "Xayot xavfsizligi asoslari", T.: "Moliya" 2001 y.
22. Yo'ldoshev H.S, Avazova SH.M."Ekologiya va tabiaini muhofaza qilish asoslari". T.: "Mehnat"- 2003 y.
23. O'zbekiston Musulmonlar idorasi "Namoz o'qish qoidolari", T.: "Toshkent islom universiteti" nash-matbaa birlashmasi. 2012 y.
24. "Muhofaza" jurnali
25. "Fuqaro muhofazasi" jurnali
26. "Ekologiya va hayot" jurnali
27. Ma'rifat gazetasi.

Elektron ta'lim resurslari

1. WWW.ISLOM.UZ Ahmad Muhammad mual. "Ma'nolar xazinasini" kitobi asosida tayyorlangan versiya.
2. www.ziyonet.uz
3. www.edu.uz
4. www.referat.uz
5. www.filosofiya.uz
6. www.ziyonetkutubxona.uz
7. www.bibloteka.uz
8. www.milliymanaviyat.uz

MUNDARIJA

1.KIRISH.....	3
2.I BOB. Favqulodda vaziyatlar va ularning ijtimoiy hayotda aks etishi.....	9
3.1.1.Favqulodda vaziyatlar tuShu nchalari hamda ularning tasniflanishi.....	9
4.1.2. Favqulodda vaziyatlarning ma'naviy hayotda aks etishi.....	16
5.II BOB. Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularga qarshi kurashishning ma'naviy-ma'rifiy omillari.....	40
6.2.1. Favqulodda vaziyatlarning oldini olishning ma'naviy-ma'rifiy omillar	40
7. 2.2. O'zbekistonda Favqulodda vaziyatlarga qarshi qaratilgan chora- tadbirlar tizimi.....	50
8.III BOB. O'quvchi- yoshlarni favqulodda vaziyatlar davrida ma'naviy yuksaklik ruhida tarbiyalashning pedagogik omillari.....	55
9.3.1. O'quvchi- yoshlarga favqulodda vaziyatlar davrida ma'naviy yuksaklik ruhida tarbiyalashning pedagogik omillarini interfaol metodlar asosida tuShu ntirish.....	55
10. 3.2. Mavzuga oid dars ishlanmasi.....	57
11. Ilovalar.....	67
12. Xulosa.....	70
13. Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati.....	74

